

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
“JAHON TARIXI VA ARXELOGIYA” KAFEDRASI

NORQULOVA DILBAR MURTAZAYEVNA
5220200 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) ta'lim
yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

QASHQADARYO VOHASI MODDIY MADANIYATI
(V-XIII ASRLAR)

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: t.f.n. Rajabova N.N.

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Tarix fakulteti dekani v/b

_____ t.f.n. A.Hasanov

_____ 2014 yil

Qarshi shahri, 2014 yil

Mundarija:

Kirish	3
I bob. V-XIII asrlarda O'rta Osiyodagi tarixiy vaziyat	5
1.1. V-XIII asrlarda O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan sulolalar	5
1.2. IX-XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksalishi	23
II bob. So'g'd hududida olib borilgan arxeologik izlanishlarning tarixiy ahamiyati	32
III bob. V-XIII asrlarda Qashqadaryo vohasining moddiy madaniyati	39
3.1. V-XIII asrlarga oid Qashqadaryo vohasidagi arxeologik yodgorliklarning o'rganilishi	39
3.2. V-XIII asrlarda Qashqadaryo vohasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot	49
Xulosa	64
Foydalanilgan manba va adabiyotlar	66
Ilova	68

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqil respublikamizning ijtimoiy fanlar sohasi olimlari oldida xalqimiz tarixini, shuningdek boshqa xalqlar tarixini haqqoniy va to'laqonli o'rganish masalasi dolzarb vazifa sifatida turibdi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida, respublikamizning yetakchi tarixchi olimlari bilan o'tkazgan uchrashuvida va boshqa mazkur soha bilan bog'liq yig'ilishlarda bir necha marta ta'kidlab o'tgan¹. Shuningdek, bu vazifalar O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlarida ham o'z aksini topgan².

Tarix faniga o'rta asr tushunchasi uyg'onish davri mutafakkirlari tomonidan kiritilgan bo'lib, madaniyat yuksak taraqqiy etgan antik davr bilan uyg'onish davr o'rtasidagi davrga nisbatan ishlatilgan. O'rta asrlar feodal yer egaligi munosabatlari davri bo'lib uch bosqichdan iborat: 1) **ilk o'rta asrlar** (V - IX asrlar); 2) **rivojlangan o'rta asrlar** (IX - XV asrlar); 3) **so'nggi o'rta asrlar** (XVI - XVII asrning o'rtalari) ni o'z ichiga oladi.

Mavzuning dolzarbligi sifatida V-XIII asrlarga oid yodgorliklarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga asoslanib Qashqadaryo vohasi aholisi moddiy madaniyati haqida ma'lumot beruvchi manbalarni tahlil qilish asos qilib olindi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2012; Karimov I.A. Ўзбекистон мустақиллаikka эришиш оstonасида. – Т., “Ўзбекистон”, 2011; Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. –Т., Ўзбекистон, 1999. 7 ж. –Б. 128-132; Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., “Маънавият”, 2008.

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори “Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” // Г. Халқ сўзи. 27 июнь 1998 йил; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори “Шахрисабз шаҳрининг 2700 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш тўғрисида” // Халқ сўзи, 2002 йил, 30 март; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Қарши шаҳрининг 2700 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш тўғрисида» ги Қарори // Халқ сўзи. 2004 йил, 29 сентябрь; Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Қарши шаҳрининг 2700 йиллигини нишонлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ги Қарори // Халқ сўзи. 2005 йил, 26 июль; Ўзбекистон Республикасининг қонуни “Археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида” // Халқ сўзи. 2009 йил, 30 август; Ўзбекистон Республикасининг қонуни “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида” // Халқ сўзи, 2009 йил, 12 октябрь.

Ishning maqsad va vazifalari. Qashqadaryo vohasi tarixida V-XIII asrlar moddiy madaniyatining o'rni va ahamiyatini ochib berish maqsad qilib olindi.

- V-XIII asrlarda O'rta Osiyodagi tarixiy vaziyatni yozma va arxeologik manbalar asosida tahlil qilish;

- V-XIII asrlarda O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan sulolalar tarixini manbalar asosida tahlil qilish;

- V-XIII asrlarda Qashqadaryo vohasida yozuv tizimi masalalarini tarixiy manbalar asosida tahlil qilish;

- Arablar bosqinining Qashqadaryo vohasi aholisi hayotidagi oqibatlarini o'rganish;

- Qashqadaryo vohasi aholisining V-XIII asrlardagi diniy qarashlarni tahlil qilish.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- V-XIII asrlar davridagi O'rta Osiyodagi tarixiy vaziyatni yozma va arxeologik manbalar asosida tahlil qilindi;

- V-XIII asrlarda O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan sulolalar tarixini manbalar asosida tahlil qilindi;

- Arablar bosqinining Qashqadaryo vohasi aholisi hayotidagi oqibatlarini o'rganildi;

- V-XIII asrlarda Qashqadaryo vohasida yozuv tizimi masalalarini tarixiy manbalar asosida tahlil qilindi;

- Qashqadaryo vohasida V-XIII asrlardagi diniy qarashlarni tahlil qilindi.

Ishining amaliy qiymati va ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot qismi va xulosa qismida keltirilgan ma'lumotlardan umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarida tarix fani darslarida, o'lka tarixini o'rganishda, universitetlardagi tarix fakultetlarida maxsus kurs ma'ruzalarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Ishning aprobatsiyasi. Bitiruv malakaviy ish mavzusiga oid ma'lumotlar Qarshi davlat Universiteti Tarix fakulteti Jahon tarixi va arxeologiya kafedrasi qoshidagi "Yosh arxeolog" va "Yosh tarixchi" to'garaklarida ma'ruza qilingan.

Ishning hajmi va strukturasi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat.

I BOB. V-VIII ASRLARDA O'RTA OSIYODAGI TARIXIY VAZIYAT

1.1. V-VIII asrlarda O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan sulolalar

Milodning V-VIII asrlaridagi ilk o'rta asrlar davrida ijtimoiy munosabatlar sohasida, boy yer egalari - dehqonlar sinfining paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan, tub o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Mana shu davrga oid siyosiy vaziyatlar O'rta Osiyo Ikki daryo oralig'idagi buyuk saltanatlarning yangi viloyatlarni qo'lga kiritish bo'yicha raqobatchiligi bilan belgilanadi: milodning V asri ikkinchi yarmi - VI asr birinchi yarmida Sosoniylar Eroni va Eftalitlar davlati, milodning VI asr ikkinchi yarmida va VII asr birinchi yarmida Sosoniylar Eroni va Turk xoqonligi, so'ngra esa Turk xoqonligi, Tan xitoyi va arab xalifaligi, VIII asr o'rtalarida bu mintaqani abbosiylar xalifaligi tarkibiga butkul qo'shib olinishi bilan yakuniga yetgan.

Qadimgi Turon diyorida zamonasining buyuk davlatlaridan Qang` (Kanguy) davlati va Kushon podsholigi ravnaq topgan davrda yuksalish boshlangan edi. Bu o'zgarishlar albatta mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim o'zgarishlarga olib keldi. Shaharlarning soni ko'paydi va maydonlari kengaydi, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning markaziga aylandi³.

Vohalarda yirik sug'orish tarmoqlari qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Suv tegirmoni, chig'ir va charxpalaklar (charxparraklar) kabi suv inshootlari kashf etildi. Oqar suv sathidan birmuncha balandlikda joylashgan maydonlarga suv chiqarib obod etildi. Ziroatchilikda g'allakorlik va polizchilik bilan bir qatorda paxtachilik va bog'dorchilik maydonlari kengaydi.

Ekin maydonlarini sug'orish va ishlov berishdagi asriy tajribalari tufayli aholi dehqonchilikdan mo'1 hosil oladigan bo'ldi.

Shaharlarda aholining gavjumlashuvi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivoj topishi bilan qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. Natijada mamlakatning iqtisodiy hayotida xomashyo yetkazuvchi qishloqlarning nufuzi ko'tarildi. Bir tomondan yerga, ziroatkor maydonlarga

³ Rtveladze E.V. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi. – T., 2009. B. 117-118.

bo'lgan munosabat, ularga egalik qilish shakli asta-sekin o'zgara boshladi. Ikkinchi tomondan esa, o'troq ziroatkor aholi bilan chorvador qabilalar o'rtasidagi aloqalar rivqjlandi. Mamlakatning dasht va tog' oldi mintaqalarida yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining o'troq hayotga o'tishi kuchaydi. Oqibatda dehqonchilik uchun yaroqli obikor yerlarga bo'lgan muhtojlik tobora oshib bordi. Natijada qo'riq va bo'z yerlarga suv chiqarib katta-katta yer maydonlarini ochish ishlari jadallashdi. Bunday obodonchilik ishlarini amalga oshirishda el-yurtning ijtimoiy hayotida kattagina nufuzga ega bo'lgan mulkdor tabaqa vakillari, qishloq oqsoqollari hamda urug' va qabila boshliqlari sarkor-ishboshi sifatida faol qatnashadilar. Qo'riqlarda ochilgan yangi yer maydonlarining ma'lum bir ulushi ularning qo'liga o'tadi va vorisiy mulkiga aylanadi. Shu tariqa katta yer egaligiga asoslangan mulkdorlar tabaqasi shakllanadi¹.

Sarkorlar o'zlariga tegishli yer maydonlarini sug'orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa to'g'on boshi atrofidan ajratib oladilar. Bu yo'l bilan ular suvdan dehqonchilikda bemalol foydalanish, suv taqsimotini nazoratga olib, qishloq aholisi ustidan o'z ta'sirini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tariqa ular qishloqlarda o'z ta'sir doirasini kengaytirib, bora-bora ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaydi. O'sha zamonda ular *dehqonlar* deb atalgan. Dehqonlar shaharlarda hashamatli qasr va saroylarga, savdo va hunarmandchilik do'kon-u rastalaridan iborat kattagina xo'jalikka ham ega edilar. Qishloqlarda esa, ekinzor paykallardan tashqari, ularning ko'shk va istehkomli qo'rg'onlari, objuvoz-u moyjuvoz va tegirmonlari bo'lardi. Qul, cho'rildan iborat ko'pdan ko'p xizmatkorlar dehqonlarning xo'jaligida qishin-yozin mehnat qilganlar. Bulardan tashqari, har bir katta yer egasining 30-40, 50-100 va ba'zan undan ortiq chokarlari bo'lgan².

Chokarlar baquvvat va abjir hamda o'z xojasiga sadoqatli o'spirinlardan tanlab olingan. Ayrim manbalarda qayd etilishicha, o'sha davr udumi bo'yicha, xojasi vafot etgan chokarlar hatto u bilan birga tiriklayin ko'milishi lozim bo'lgan.

¹ Rtveladze E.V. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi... B. 122-124.

² Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., 2001. Б. 76-77.

Bunday sodiq va jangovar chokarlari bilan dehqonlar yovgarchilik paytlarda dushmanga qarshi harbiy yurishlarda qatnashardi. Osoyishtalik zamonda esa chokarlarga suyanib, qishloqning ziroatkor ahli ustidan hukmlarini o`tkazardi.

Ilk o`rta asrlarda dehqonlar, kadivarlar va kashovarlar tabaqalari shakllandi. Turon aholisining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida sodir bo`lgan bunday keskin o`zgarish mamlakatning mayda davlatlarga bo`linib ketishiga sabab bo`ladi.

Avvalda o`z qaramog`idagi xizmatkorlari mehnatidan foydalanib kelgan dehqonlar keyinchalik turli yo`llar bilan qishloq jamoalari ustidan hukmronlik qiladigan, bora-bora ular kuchidan foydalanadigan bo`ladilar. Shunday qilib, mamlakatda yerga egalik qilish munosabatlarining shakllanishi bilan qishloq jamoalari ichida yirik yer egalari bo`lmish dehqonlar bilan bir qatorda kadivarlar tabaqasi ham paydo bo`ladi. Mamlakatda yer-suv mulkchiligining xususiyligi ortib borishi bilan kadivarlarning soni ko`payib, dehqonchilik xo`jaligining asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarining biriga aylangan¹.

V asrning o`rtalariga kelib, garchi ekin yerlarining ma'lum bir qismi mulkdor dehqonlar qo'1 ostidagi mulklardan iborat bo`lsa ham, ammo ziroatkor vohalardagi obikor yerlarning asosiy qismi hali ham qishloq jamoalarining qaramog`ida edi.

Shunday qilib, yer egaligi munosabatlarining tarkib topishi bilan mamlakatning ijtimoiy hayotida keskin o`zgarishlar sodir bo`ldi. Patriarxal qishloq jamoalari ijtimoiy jihatdan tabaqalanib, u yerli mulkdor dehqon va unga qaram bo`lgan yersiz va erksiz kadivarlarga ajralib bordi. Qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo`lgan erkin ziroatchilar tabaqasi kashovarlar deb atalardi. Ularning ma'lum bir qismi jamoa yerlaridan mahrum bo`lib, bora-bora kadivarlarga aylanib borganlar. Ayrim dehqonchilik vohalarining katta yerlarga ega bo`lgan dehqonlari o`z viloyatlarida hatto mustaqil hokim bo`lib oladilar.

Milodning V asr ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning anchagina qismi, shu jumladan So'g'd, Shimoliy Tohariston va Choch Eftalitlar davlati tarkibiga kirgan.

¹ Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. – Т., 2010. Б. 112-113.

III asr o`rtalarida Xorazm davlatini Afrig`iylar sulolasiga mansub xorazmshohlar idora qiladi.

Zaiflashib borayotgan Qang` davlatidan birinchi bo`lib Xorazm ajralib chiqadi. Uni mahalliy Afrig`iylar sulolasiga mansub xorazmshohlar idora qila boshlaydi. Milodiy III asr o`rtalarida Xorazm davlatining poytaxti dastiab hozkgi Qoraqalpog`istonning Ellikqal`a tumanida joylashgan qadimgi Tuproqqal`a shahar xarobasining o`rnida bo`lgan.

Poytaxt mudofaa jihatidan nihoyatda mustahkam qurilgan. Shaharning mustahkam labirintli (g`ulomgardish) darvoza og`zi istehkomi - darvozaxonasi bo`lgan. Darvoza qarshisida shahar markazini kesib o`tgan ko`chaning har ikki tomoni bo`ylab shaharliklarning turar joylari joylashgan. Shahar markazidan yuqoriroqda ibodatxona majmuasi, uning shimoli-g`arbiy burchak qismida esa balandligi 25 metr bo`lgan uch minorali xorazmshohlar qasri qad ko`targan. Qasr imoratlari ikki qavatli shoh saroyi va shohona turar joylar rangdor tasvirlar, qabartma ganchkor naqshlar hamda haykallar bilan bezatilgan. Shaharning umumiy maydoni 26 gektarni tashkil etgan. Bu davrda Xorazmda atrofi mustahkam devorlar bilan o`ralgan shaharlar, istehkomli qishloqlar juda ko`p bo`lgan.

Milodiy 305-yilda xorazmshoh Afrig` o`z qarorgohini Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahriga ko`chiradi. Kat qayta tiklanib, Al-Fir qasri ichida shoh o`ziga yangi saroy qurdiradi. Xuddi shu vaqtdan boshlab Xorazmning Afrig`iy shohlari aversiga shoh va reversiga suvoriy tasvirlari tushirilgan kumush tangalar zarb etib, mamlakatning ichki va tashqi savdo munosabatlarida mustaqil bo`lib oladilar.

IV asr o`rtalarida o`rta Osiyoga Yettisuv va Sharqiy Turkistondan ko`chmanchi chorvador xion nomli qabilalarning hujumi boshlanadi.

Xioniylar milodiy 353-yilda o`z hukmdori Grumbat boshchiligida Sug`dga bostirib kiradilar. So`ngra ular Eronda tashkil topgan va tobora kuchayib borayotgan Sosoniylar davlati bilan to`qnashadilar. Dastlabki janglardayoq sosoniylar shohi Shopur II (309-379) xioniylardan yengiladi. So`ngra o`zaro

sulhga kelishilib, hatto ular o`rtasida ittifoqlik ipi bog`lanadi. o`rtadagi ittifoq goh buzilib, goh tiklanib turadi.

Nihoyat, IV asrning 70-yillarida o`rta Osiyoda xioniylar hukmronligi o`rnatildi. Sirdaryo bo`ylaridan to Amudaryo havzasigacha cho`zilgan keng maydonda xioniylarning kuchli davlati qaror topadi. Bu davlat 120 yildan oshiqroq hukmdorlik qiladi.

V asrning 20-yillarida Sharqdan Sirdaryo va Orol bo`ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga yana bir ko`chmanchi chorvador aholi - *toxarlar* kirib keladi. Toxarlar kushonlarning avlodlaridan bo`lib, *Kidar* ismli hukmdor ularga yo`lboshchi edi. Shuning uchun ular *kidariylar* nomi bilan tilga olinadi. Tez orada kidariylar Amudaryo havzasi hamda g`arbiy va janubiy Sug`d yerlarini ishg`ol etib, xioniylar davlatining janubiy qismida o`z hukmronligini o`rnatganlar. Balx shahri esa bu yangi davlatning poytaxtiga aylantirilgan.

Aftidan, kidariylar xioniylar bilan ittifoqchi sifatida harakat qilgan va tajovo`zlarini Janubga tomon kengaytirishga intilgan. V asrning 30-50-yillarida kidariylar bilan sosoniylar o`rtasida ziddiyat tobora kuchayib, ular bir-biriga dushman bo`lib qolgan. Bu ikki davlat o`rtasida 456-yilda bo`lib o`tgan navbatdagi to`qnashuvda sosoniylardan qaqshatqich zarbaga uchragan kidariylar o`zini qayta o`nglab ololmaydi. Buning ustiga tez orada kidariylar shimoldan janubga tomon siljigan yana bir ko`chmanchi chorvador aholi - *eftaliylar* bilan to`qnashadilar. Natijada, kidariylar o`rta Osiyoni tark etib, janubga - Shimoliy Hindistonga chekinadilar. U yerlarda 75 yil hukmronlik qiladilar¹.

V asrning o`rtalarida diyorimizga kirib kelgan eftaliylar yozma manbalarda eftal, xaftal, xaytal degan nomlar bilan tilga olinadi. "Eftal" degan nom ilk bor "xeptal" shaklida V asr arman manbalarida uchraydi. Bu nom aslida "Eftalon" deb yuritilgan shoh nomidan olingan. Uni **Vaxshunvar** deb ham ataganlar, u eftaliylar yurishiga boshchilik qilgan. Qisqa vaqt ichida Chag`oniyon, Toxariston va Badaxshon bo`ysundiriladi. Bir zarba bilan Sug`dda xioniylar hukmronligi barham topadi. Eftaliylar davlati nihoyatda kuchayadi. Hatto ular o`zaro aloqa o`rnatish

1 Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. 1 j. – T., 2010. B. 117.

maqsadida 456 yilda Xitoyga elchi yuboradilar. Eftaliylarning tobora kuchayib borayotgan tajovuzidan xavfsiragan sosoniylar ularga qarshi yurish qiladi. Ikki o`rtadagi jangu jadallar sosoniylar shohi Pero`z hukmronlik qilgan davrda (459-484) ayniqsa avjiga chiqadi. Sosoniylar shohi eftaliylarga qarshi uch marta yurish qiladi. Dastlabki janglardayoq u mag`lubiyatga uchrab, asir tushadi. Vizantiya imperatori *Zenon* tomonidan yuborilgan o`lpon evaziga u asirlikdan ozod etiladi. Bir oz vaqt o`tgach, ikkinchi marta eftaliylarga qarshi qo`shin tortadi. Pero`zning ikkinchi yurishida ittifoqdosh Vizantiyaning elchisi ishtirok qiladi. Ikkinchi yurish ham muvaffaqiyatsiz tugaydi. Ikkinchi marta asirlikka olingan Pero`z 30 xachirga yuklatilgan kumush dirhamlar bilan o`lpon to`lash majburiyatini oladi. Biroq uning deyarli bo`shab qolgan xazinasidan faqat 20 xachirga yuk bo`ladigan mablag` topiladi xolos. Shohning Kubod ismli yosh o`g`li eftaliylar yurtiga garovga yuborilib, Pero`z tutqunlikdan ozod etiladi. Ikki yil davomida eftaliylarga katta o`lpon to`lab turiladi. Pero`z 484-yilda eftaliylarga qarshi uchinchi marta yurishga o`tlanadi. Bu galgi urush sosoniylar shohining haloqati bilan tugaydi. Marv ishg`ol qilinib, Eron ustiga juda og`ir o`lpon yuklanadi. Pero`z vorislari Kubod (488-531), Anushervon (531-579) hukmronlik qilgan davrlarda eftaliylar bilan munosabatlar ancha yumshab, tinchlik tusini olgan. Sosoniylar kumush hisobida belgilangan bojni uzluksiz to`lab turadilar. Keyinchalik eftaliylar Kobul, Panjob, Urumchi, Qorashar, Xo`tan, Koshg`ar shaharlarini ham o`z tasarrufiga kiritadilar. Shunday qilib, V asrning ikkinchi yarmi va VI asrning boshlarida o`rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston yerlarini birlashtirgan, ilk o`rta asrlarning yangi qudratli davlati hisoblangan Eftaliylar davlati tashkil topadi.

Eftalitlar – “oq Xunlar”, ilk o`rta asrlarda Hindistondan Sharqiy Turkistongacha bo`lgan ulkan hududni, shu jumladan O`rta Osiyoning kattagina qismini egallagan edi¹.

Eftalitlarning nomlanishi xion yoki alxon bo`lib, yozma manbalarda (Oromiy, Suriya, Xitoy) ular abdal, entalit, xental, idal, tetel, yeftal, xeftal, xaytal, ye-da deb nomlangan. Ilk bor Eftalitlar milodning 386 yillaridagi Edessani qamal qilish bilan bog`liq voqealarda tilga olingan. Ularning dastlab manzil - makon aylagan joylari

¹ Rtveldze E.V. O`zbekistonning tarixiy o`tmishi... B. 120.

haligacha to'la aniqlanmagan: Oltoy yoki Sharqiy Turkiston, Sirdaryo va Amudaryo, Pomirol (Badaxshon) quyi oqimlarida bo'lishi mumkin. Eftalitlar - Baqtriya tub aholisining ajdodlari bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Eftalitlarning tili kam o'rganilgan. Ayrim olimlar uni mo'g'ul - turk tillariga mansub deyishadi, biroq aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, u Sharqiy Eron tillariga mansub bo'lib, Eftalitlarning tangalaridagi yozuvlarda aks etgan ismlar va unvonlarning tahlili shuni ko'rsatmoqda. Eftalitlar milodning V asr o'rtalarida ulkan davlat barpo qilib, O'rta Osiyo, Hindiston, Afg'oniston, Eron va Sharqiy Turkiston tarixida muhim ro'l o'ynashgan. Turklar (milodning VI asr ikkinchi yarmida) va Arablarning kelishi hamda Eftalitlarning siyosiy qudrati yakson qilinishi bilan, ular asta-sekin mahalliy O'rta Osiyo xalqlari ichiga aralashib ketishadi.

Eftalitlar milodning V asr o'rtalarida O'rta Osiyo va qo'shni viloyatlarida ikkita davlat tuzishgan. Ulardan biri Hindiston hududida tashkil qilingan bo'lib, Eftalitlarning ushbu mamlakatga bostirib kirishi natijasida yuzaga kelgan va Shimoliy Hindiston, Pokiston va Afg'onistonning janubi-sharqiy qismini o'z ichiga olgan. Hindiy Eftalitlar davlatining eng kuch-qudratga tolgan vaqti milodning V asr oxiri - VI asrning birinchi yarmida, Toroman va uning vorisi Mihirakul davrida sodir bo'lgan. VI asr o'rtalariga kelib Eftalitlarning Hindistondagi davlati tanazzulga uchradi.

Eftalitlar davlatining ikkinchi bor gullab-yashnashi milodning V asr oxiri - VI asr boshlariga to'g'ri kelib, Afg'onistonning kattagina qismi va O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarini o'z ichiga olgan, ana shundan boshlab, taxminlarning biriga muvofiq, Eftalitlar Shimoldagi viloyatlarni qo'lga kiritib boshlashgan. Boshqa nuqtai nazarga ko'ra, Eftalitlarning bosqinchilik yurishlari Sharqiy Turkistondan boshlangan. Bir qator janglarda Eftalitlar Sosoniylar Eroniga qaqshatg'ich zarba berishgan, ular o'rtasidagi urushda, jumladan, ko'p yillar davomida Eftalitlarga salmoqli soliq to'lab kelgan shoh Peroz (459-484) halok bo'ladi.

O'rta Osiyodagi Eftalitlar davlati ko'plab mustaqil hukmdorliklarning konfederatsiyasidan iborat bo'lib, ular sulolaviy vorislikka ega bo'lishsada, Eftalit shohlarining hukmi ostida qolishgan. Bunda, Eftalitlarning Hindistondagi

davlatidagi kabi, markazlashgan tanga zarb qilish bo'lmagan, aksincha O'rta Osiyodagi har bir hukmdorlik o'zining kumush yoki mis tangalarini chiqarib turavergan, davlatda bir qancha yozuvlar (so'g'diy, braxmi va hokazo) qo'llanilgan, biroq davlat yozuvi - har holda Eftalit davlatining Baqtriya-Toharistondagi negizida, Baqtriya yozuvi asosiy hisoblangan. Eftalitlarning o'zi dastlab, aftidan, ko'chmanchilar bo'lishgan, biroq shaharlarni bosib olishganidan so'ng ular asosan o'troq turmush tarzi asosida hayot kechira boshlashgan. Shuning uchun ham vizantiyalik tarixchilar Eftalitlarni shaharlik qabila (Menandr) sifatida tavsiflashlari bejiz emas. Eftalitlar jamiyati sinfiy bo'lib, yaqqol ko'zga tashlanadigan mulkiy farqlanishlarga ega bo'lgan. Ular kuchli, asosan otliq armiyaga ega bo'lishgan. Eftalitlar orasida Poliandriya (ko'p erlik) - guruhniy nikohning qoldiqlari saqlanib, bunda aka-ukalar bitta xotinga ega bo'lishgani kabi shakli hukm surgan.

Eftaliylar davlatiga birlashgan aholining etnik tarkibi xilma-xil bo'lgan. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti esa biri ikkinchisidan keskin farq qilgan. Eftaliylar kelib chiqishiga ko'ra ko'chmanchi qabilalarga mansubligi tufayli chorvachilik bilan shug'ullanib, yaylovlarda kigiz o'tovlarda yashaganlar. Eftaliylar zabt etgan yerlarida obod dehqonchilik vohalariga va savdosi rivojlangan shaharlarga ega bo'ldilar. Yillar o'tishi bilan ular omilkor mahalliy aholi bilan qorishib ketadilar. Toxariston va So'g'd rivoj topgan dehqonchilik va bog'dorchilikning markazi hisoblanardi. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilar edi. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, V-VI asrlarda Sharqiy Turkiston va o'rta Osiyo yerlarida paxta ekilar edi. Uning tolasidan oppoq va nihoyatda mayin mato to'qilgan. Xitoy bozorlarida bunday matoga talab katta bo'lgan. Chunki o'sha davrlarda Xitoyda paxta hali ekilmas edi.

Aholining dashtliklarda yashovchi yarim ko'chmanchi qismi chorvachilik, xususan mayda va yirik shoxli hayvonlar boqish, tuyachilik, tog'li va tog' oldi mintaqalarida esa yilqichilik bilan shug'ullanar edi. Farg'ona vodiysi hamon zotli arg'umoqlari bilan mashhur edi.

Ziroatkor yerlarning kattagina qismi hali ham qishloq jamoalari tasarrufida bo'lsa-da, ammo mamlakatdagi yer maydonlarining ma'lum bir qismi dehqonlar qo'lida to'plana borgan. Buning natijasida qishloq jamoasining kashovar - (erkin qo'shchi)lari ma'lum darajada dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram kadivarlarga aylana borgan. Yaylovlarning asosiy qismi esa qabila va urug' jamoalari hamda ularning oqsoqollari xvabulari tasarrufida edi. Hozirgi vaqtda ham Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'iston yerlarining bir qismini suv bilan ta'minlab turgan *Zog'ariq (Zovariq)* va *Bo'zsuv*, Samarqand viloyati janubiy tumanlarining asosiy suv manbai *Darg'om kanali* V asrda barpo etilgan eng yirik sug'orish tarmoqlaridan hisoblanadi. Bu davrda tog' oldi mintaqalarida joylashgan adir yerlarga suv chiqarib, obod etishda o'q, gupchak tishli g'ildirakka asoslangan va o'z davri uchun anchamuncha murakkab bo'lgan suv inshootlari - charxpalak, chig'ir va boshqalardan foydalaniladi¹.

Yangitdan o'zlashtirilgan yerlarda mulkdor dehqonlarning yirik qo'rg'onlari hashamatli qasrlari, mehnatkash qo'shchilarning ko'pdan ko'p qishloqlari mayda turar joylari qad ko'taradi. Xuddi shu davrda Chag'oniyon (Surxondaryo), Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz), Naxshab (Qarshi) va Toshkent atroflari to'la o'zlashtirilib, alohidaalohida dehqonchilik vohalari shakllanadi. Keyinchalik bu vohalarda yerdor dehqonlarning siyosiy mavqeyi oshib, ular yetakchilik qilgan mayda hokimliklar vujudga keladi.

Tashqi savdo bojidan manfaatdor bo'lgan eftaliylar "*Ipak yo'li*" ni o'z nazoratlari ostida tutib turishga harakat qilgan. Xitoy, Hindiston, Eroni va Vizantiya bilan bo'lgan xalqaro savdoda ular faol qatnashardi. Ipak yo'li savdosida sosoniy savdogarlari bilan raqobatda asosan sug'diylar vositachilik rolini o'ynardi.

Xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi bilan mamlakatda tanga pul muomalasi tartibga solinadi. Ichki va tashqi savdo munosabatlarida eftaliylar dastavval sosoniy hukmdorlarining kumush tangalaridan keng foydalanadilar. Bulardan tashqari, Buxoro, Poykand, Vardona, Naxshab, Samarqand va Xorazmda mahalliy hokimlar tomonidan chiqarilgan chaqa tangalar mamlakatning ichki

¹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи...80-81.

savdosida keng muomalada bo'lgan. Bu mamlakat hayotida mahalliy hokimlar katta nufuzga ega ekanidan dalolat beradi.

Eftaliylarda aholining tabaqalanishi, mulkiy tengsizlik kuchayib borgan. Shu boisdan davlat boshqaruvida qonun va qoidalar qaror topgan. Davlat harbiy kuchga tayangan. Jinoyat uchun juda qattiq jazolar belgilangan.

Ko'chmanchi qabilalarning dehqonchilik vohalari atrofiga kelib o'rtnashishi bilan ma'lum darajada dasht udumlari va e'tiqodiy tasavvurlari o'troq aholining hayotiga kirib bordi. Asriy madaniy an'analari kuchli bo'lgan Toxariston va Sharqiy So'g'd vohalarida ko'chmanchilar tez orada o'troqlashdilar. Ular mahalliy aholi bilan qorishib, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etib bordilar. Madaniy hayotda sodir bo'lgan bunday o'zgarishlar ayniqsa binokorlik, me'morchilik va tasviriy san'atnirig ayrim jabhalarida ko'proq namoyon bo'ldi. Samarqand, Buxoro, Naxshab va Choch (Toshkent) kabi dehqonchilik vohalarida baland tagkursi ustiga bino qilingan ko'plab istehkomli qasrlar va qo'rg'onlar qad ko'tardi. Bu davr binokorligi va me'morchiligida ayniqsa qasrlar alohida o'rin to'tgan. Ularning ayrimlari hatto ikki qavatli bo'lib, yuqorisiga *pandus* orqali chiqilgan.

O'rta Osiyo aholisi turli tillarda so'zlashgan. Chorvador aholi o'rtasida turkiy til muhiti hukmron edi. o'troq aholining bir qismi sug'd tilida, bir qismi turkiy tilda so'zlashgan. Bu davrda sug'd tili xalqaro savdo tili sifatida Yettisuv va Farg'ona orqali Sharqiy Turkistonga kirib, Xitoy hududlarigacha yetib boradi. V-VI asrlarda So'g'd yozuvi, Xorazm va eftaliy yozuvlari tarqalgan edi. Eftaliylar xati Baqtriya yozuvi asosida paydo bo'ladi. Eftaliylar yozuvi 22 harfdan iborat bo'lgan. Xat chapdan o'ngga tomon ko'ndalangiga yozilgan. Bu davrda Xitoy, Hindiston va Eron bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar kengayib boradi. V asrda o'rta osiyolik shishasozlar Xitoy hunarmandlariga rangli shisha va shisha buyumlar yasashni o'rgatadilar. o'rta Osiyo shishasi rangdorligi, yarqiroqligi va tiniqligi jihatidan Vizantiya shishasidan ustun turgan. Xitoy imperatorlari o'z saroylarini bezashda o'rta Osiyodan keltirilgan rangli shishadan foydalanganlar. Shunday qilib, o'rta Osiyo aholisining madaniy an'analari qo'shni mamlakatlar, xususan,

Hindiston va Eron tasviriy uslublari bilan omixtalashib, ilk o`rta asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevorga aylanadi.

V-VII asrlarda mamlakat bir qancha mayda hokimliklarga bo`linib ketadi. Viloyat va uning yirik shaharlariga tayangan 15 dan ortiq mustaqil hokimliklar tashkil topadi.

Bu mayda hokimliklar avval eftaliylar, so`ngra Turk xoqonligiga bo`ysundirilgan bo`lsa-da, ammo eftaliylar ham, turk xoqonlari ham ularning ichki hayotiga aralashmaydilar. Markaziy hokimiyatga boj to`lab turish bilan ular o`z mustaqilliklarini ma`lum darajada saqlab qoladilar. Bunday nisbatan mustaqil viloyatlarning hukmdorlari o`z atrofidagi mulkdor dehqonlar va ularning harbiy chokarlariga tayanardilar.

Mustaqil hokimliklar orasida eng yirigi *So`g`d ixshidlari* edi. Sug`dda aholi gavjum yashardi. So`g`diylar dehqonchilik va bog`dorchilik, ayniqsa uzumchilikda nihoyatda omilkor edilar. Chorvachilikda mayda va yirik shoxli hayvonlar bilan bir qatorda ot, xachir, eshak va tuyalar boqilardi. Ayniqsa, Sug`dning hitori qo`ylari va tulporlari juda mashhur edi.

Sug`d shaharlari bu davrda hunarmandchilikning markaziga aylanadi. Ularda to`qimachilik, kulolchilik, ko`nchilik, chilangarlik, taqachilik, *najjorlik*, qurolsozlik va zargarlik yuqori darajada rivojlangan edi. Sug`d tog`laridan *oltin*, *jez*, *novshadil* va *yalama tuzlar* kovlab olinardi.

Shaharlarda hunarmandchilikning yuksalishi o`z navbatida ichki va tashqi savdo aloqalarining kengayishiga imkon beradi. Sug`ddan Sharqiy Osiyo va Xitoyga qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan zeb-ziynatlardan tortib, turli-tuman matolar va dorivorlargacha olib chiqilardi.

Nisbatan mustaqil hokimliklarning bir nechtasi Toxaristonda joylashgan edi. Balx shahri Toxariston poytaxti bo`lgan.

Toxariston avval eftaliylar, so`ngra Turk xoqonligi tomonidan bo`ysundiriladi.

Manbalarda ta'rif etilishicha, Toxariston aholisi budda diniga e'tiqod qilgan. Toxariston 25 harfli yozuviga ega bo`lgan. U ko`ndalangiga chapdan o`ngga qarab

yozilgan. Aholisi ip va ipak matolardan kiyingan. Tog`liklari po`stin va jun chakmon kiyishgan.

Toxariston aholisining asosiy qismi o`troq dehqonchilik bilan shug`ullangan. Toxaristonda ayniqsa qurolsozlik yuksalgan. Chokarlari kamon, gurzi, cho`qmor, xanjar, shamshir va sovutlar bilan qurollanardi. Toxaristonda shishasozlik va to`qimachilik ham ancha rivoj topgan edi. Toxariston ko`p mamlakatlar bilan savdo aloqalari olib borgan, o`z chaqa tangalari ichki savdo muomalasida yurgan.

Farg`ona hukmdorlari "*ixshid*" deb atalgan. Farg`ona yerlari juda hosildor, aholisi dehqonchilik bilan kun kechirgan, paxta va sholi ekkan. Koson, Axsikat va Quva (Qubo) kabi yirik markaziy shaharlarida hunarmandchilikning turli sohalari rivoj topib, uning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda juda xaridorgir bo`lgan. Qo`shni mamlakatlarga *bo`yoq*, *rangli shisha* buyumlar va *dori-darmonlar* chiqarilgan.

Farg`ona vodiysida o`troq aholi bilan bir qatorda chorvadorlar ham yashagan. Qurama va Qoramozor tog`lari yonbag`irlarida qadimdan yilqichilik bilan shug`ullanilgan. Bu diyorda ko`paytirilgan tulpor otlarning dong`i jahonga taralgan.

Chirchiq va Ohangaron vodiylarida ikkita hokimlik mavjud bo`lgan. Manbalarda ulardan biri Choch, ikkinchisi Iloq mulki nomlari ostida tilga olinadi. Chochning markazi Choch shahri bo`iib, hukmdon "*tudun*" deb yuritilardi. Iloqning markazi Tunkat, hokimlari "*dehqon*" deb atalardi. V asrda ular Eftaliylar davlatiga, VI asrda esa g`arbiy turk xoqonligiga bo`ysundiriladi¹.

Choch va Iloq sertarmoq xo`jalikka ega bo`lib, sug`orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, konchilik, ichki va tashqi savdo yuksak darajada edi.

Choch va Iloq tog`lari oltin, kumush, rangli ma'danlar, temir va jilvador chaqmoq toshlarga boy edi.

¹ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Т., 1982. Стр. 32-34; Буряков Ю.Ф. К истории раннесредневекового Чача // О'zbekiston tarixi. № 3, 2002. Стр. 10-20.

Karvon yo`lining o`lka orqali o`tishi Choch va Iloqqa ichki va tashqi savdo-sotiqning kengayib, shaharlarining gavjumlashuviga imkon beradi.

Choch tudunlari old tomoniga mulkdorning surati, orqasiga gajak dumli bars yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg`a tushirilgan chaqa-tangalar zarb etganlar¹.

Ilk o`rta asrlarda o`rta Osiyo hokimliklarida ma'lum tartibdagi boshqaruv ma'muriyati tashkil topgan edi. Boshqaruv ma'muriyatining asosiy vazifasi fuqarolardan boj, soliq va yasoqlarni o`z vaqtida yig`ib olish, jamoat ishlariga ularni safarbar etishdan iborat bo`lgan. Kirim-chiqimlar aniq va ravshan qayd etilib, hujjatlashtirilgan. Ularga barmoq bosilib, hatto muhr bilan tasdiqlab qo`yilgan.

V-VII asrlarda o`rta Osiyoda, bir tomondan, yerga egalik qilish munosabatlarining o`rnatilishi va mustahkamlanib borishi, ikkinchi tomondan, ko`chmanchi chorvadorlarning beto`xtov shiddat bilan kirib kelishi va o`troqlashuvi shahar va qishloqlarning qiyofasi va aholisining turmush tarziyu ahvoliga jiddiy ta'sir ko`rsatadi. Ziroatkor yerlar kengayib, dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti tubdan yaxshilandi. Tog`oldi maydonlariga suv chiqarilib, yangi yerlar o`zlashtirildi. Shaharlar gavjumlashdi. Qishloqlarda "ko`shk", "qasr", "qo`rg`on" va "qo`rg`oncha" nomlari bilan shuhrat topgan istehkomli turar joylar qad ko`tardi.

Ko`shk, qasr va qo`rg`onlar ko`proq yirik sug`orish shoxobchalari boshida, markaziy shaharlarning tevarak-atrofida hamda dehqonchilik vohalari chegaralari bo`ylab joylashgan edi. Suv chiqarilib obod etilgan vohalar bo`ylab katta-kichik qal`alar, mayda qo`rg`onchalar quriladi. Ko`shk va qasrli qo`rg`onlarda mulkdor dehqonlar, qo`rg`onchalarda esa ziroatchi mehnatkash aholi yashar edi.

Istehkomli qasr, qo`rg`on va ko`shklar asosan tashqi dushman hujumiga qarshi mudofaa inshooti, chokarlar to`planadigan joy, ma'muriy markaz hamda oziq-ovqat va qurol-yarog` saqlanadigan ombor vazifasini o`tagan.

¹ Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса. – Т., 1985. Стр. 66-67; Alimova D. A., Filanovich M.I. Toshkent tarixi (qadimgi davrlardan va bugungacha). – Т., 2009. B. 12-13.

O`rta asrlarda shaharlar uch qismdan iborat bolgan. Ular “ark”, “shahriston”, “rabod” deb yuritilgan. Shaharlarning uchala qismi ham alohida-alohida devorlar bilan o`rab olingan. Ularning bir nechta darvozalari bo`lgan. Shahar devorlari bo`ylab oqib o`tgan anhor *xandaq* vazifasini bajargan.

Turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalarning O'rta Osiyoga kelib qolishiga doir eng erta yozma manbalarning guvohlik berishicha, bular milodning VI asri ikkinchi yarmiga taalluqli ekanligini ko'rsatmoqda; milodning I ming yilliklarining birinchi yarmidagi ko'p sonli yozma yodgorliklarida va o'sha davrga mansub tangalar afsonasida Turk so'zlari unvonlari, nomlar va atama (toponim)lar uchramaydi.

Turklarning dastlabki vatani janubiy Sibirdan to Oltoy tog'lari bo`lib, milodning V asrida, deya hisoblaydi L.N. Gumilyov, ular xalq sifatida tarkib topgan. Mana shu yerdan turklar yoki turkiylar, 551 yili Buyuk Turk xoqonligini tuzib, o'zlarining G'arb va Janubi- π 'arbga tomon bosqinchilik yurishlarini boshlashgan.

551 yili Istemiyyxon davrida ular Xorazm va Yettisuvni o'zlariga bo'ysundirishadi, bu yerda turkiylarga qarindosh bo'lgan dulu va nushebi qabilalari istiqomat qilishardi¹.

Milodning VI asrdagi 60-yillar boshida Turkiylar Transoksiona hududiga: Choch, So'g'd va Buxoroga kirib kelishadi, milodning 563-567 yillar oralig'ida ular Buxoro yaqinida Eftalitlarga qaqshatg'ich zarba beradilar, bu bilan ushbu mintaqadagi Eftalitlar davlatini tag-tugi bilan tugatadilar.

Shu vaqtningo'zida turkiylar TemirDarvozalargayetib kelishadi, uorqali yo'l So'g'd va Tohariston, Hindiston tomon olib borgan. Turklarning birinchi bor Toharistonga kirib borishi 589 yilga to'g'ri keladi. Milodning VI asr oxiri - VII asr boshlaridagi Turk-Sosoniylarning harbiy ihtilofi G'arbiy Turkxoqoni Tun-Shehu (618-630) boshchiligidagi turklarning zafarli g'alabasi bilan tugaydi va Tohariston ularning qo'lga o'tadi, uni boshqarish xoqonning o'g'li Tardu-Shaduga topshiriladi.

¹ Гумилёв Л.Н. Қадимги турклар. – Т., 2002. Б. 98.

Turklarning Toharistonga kirib borishi o'taahamiatlibo'lgan. Syuan-Szyan (630 yillargayaqin) ma'lumotiga ko'ra, Toharistonning ko'plab mulklarida turk sulolalari mustahkam o'rnashib olgan edi. VII asr boshlarida turk hukmdorlari So'g'd va Chochning alohida hukmronliklari boshida turishgan. Dastlabki tangashunoslikka oid (numizmatik) guvohliklar turklarning Transoksionada bo'lishi haqida ma'lumot berib - shoh Perozning (459-484) kumush tangalariga taqlidan turklarning "Tegin" va "Xoqon" unvonlari ostida chiqarila boshlagan.

Mana shu tarzda, VI asrning o'rtalari-VII asrning boshlarida Turk qabilalarining Transoksionaga jadallik bilan yoyilib ketishi sodir bo'ladi.

VII - VIII asrlarda bu jarayon yanada kuchayib bordi: So'g'd, Choch, Ushrushonaning ko'plab hukmdorliklarida turk sulolalari mustahkam o'rnashib oladi, Transoksionaning o'zi esa G'arbiy Turk Xoqonligi tarkibiga kiradi, turk nomlari va unvonlari bitilgan turklarning shaxsiy zarb qilingan tangalari paydo bo'ladi (masalan, "xoqon" unvoni bilan chiqarilgan turgeshlar yoki Chochning turk nomlari va unvonlari bo'lgan – "xoqon", "tegin", "Il-tegin") nomlari bilan zarb qilingan tangalar, turklarning Yettisuv va qisman Choch hamda shimoliy Toharistonda turklarning - balbali haykaltaroshligi keng tarqalib, Turk runiy yozuvlari paydo bo'ladi.

Bu davrda hunarmandlar markazi sifatida shaharlarning roli ortib bordi, qishloq qo'rg'onlarining ro'li yuksalib, ko'plab dehqon qasrlari va hovlilari qad rostlay boshladi.

VI-VIII asrlarda O'rta Osiyoda So'g'd katta ro'l o'ynay boshladi, u turli hukmronliklarga ega bo'lgan (Samarqand, Maymurg', Kesh, Nahshob, Ishtixon, Buxoro va boshqalar) aralash-quralash (konglomerat) hukmdorliklardan tashkil topgandi. So'g'd Panjikentdan Karminagacha bo'lgan hududni, Kesh (Shahrisabz) va Naxshab (Qarshi yaqinida) vodiylarini ham o'z ichiga olgan. Hukmronliklar shahar va viloyatlardan tarkib topgan (dehqonchilik okruglari). Hukmdorlar Kan sulolasiga mansub bo'lib, ularning ichida kattasi "Ixshid" unvoni bilan Samarqandda hukmronlik qilgan. Ijtimoiy munosabatlarda So'g'd jamiyati

oqsuyaklar dehqonchiligiga ajralgan bo'lib, ular boy savdogarlar, shahar aholisi va dehqonlar qatlamidan iborat bo'lgan.

Samarqand uchun VI-VIII asrlar shahar hayotining ko'tarilishi, hunarmandchilikning rivojlanishi bilan xarakterlanadi. 1965 yili Afrosiyob shaharchasida VII asrga taalluqli samarqandlik hukmdorning saroyi qazib ochildi, u yerda g'aroyib devoriy naqshlar mavjud edi. Jumladan, devorlarning birida oq filda kelayotgan chog'oniyon malikasi-kelinchak boshchiligidagi to'y sahnasi tasvirlangan: ularni oq tuya va otlarda amaldorlar Samarqand hukmdorining saroyiga boshlab kelishmoqda.

Buxoro vohasi ham Buxorxudod tomonidan boshqarilayotgan, mayda mulkchilar ittifoqi tarzida namoyon bo'lgan. Shaharning o'zi alohida joylashgan ark-kuxandizdan iborat bo'lib, 3,5 ga maydondagi to'g'ri burchakli Shahriston va shahar atrofini o'z ichiga olgan¹.

Olimlar tomonidan olib borilgan, ko'p yillik tadqiqotlar, So'g'd hududida madaniy hayot yuksak darajaga ko'tarilganidan dalolat bermoqda. Buxorodan 35-40 chaqirim uzoqlikdagi, Qizilqum cho'llarida joylashgan, VI-VII asrlarda Buxorxudodlarning qarorgohi hisoblangan, shimoli g'arb tomondagi Varaxsha shaharchasi, alohida o'rin to'tgan. Saroyda olib borilgan qazilma ishlarida, devorga bitilgan rasmlar va haykalsimon naqshga o'tadigan (geometrik va uslublashtirilgan-o'simliksimon naqshli, shuningdek zoomorfli bezatilgan manzaralar hamda ziyofat va shikor sahnalari tasvirlangan) o'yma donacha topilgan. Mifologik xarakterdagi tasvirlar ham uchraydi, masalan, ayol-qush tasviri.

G'aroyib tarzidagi devoriy rasmlar ov, fillarga o'tirib olgancha, qoplon va grifonlarga o'xshash, fantastik hayvonlar bilan kurash olib borayotgan, chavandozlarning bellashuv sahnalari tasvirlangan¹.

Bu davrdagi ichki va xalqaro savdo aholining eng muhim mashg'ulotlaridan biriga aylanib qolgan. Buyuk ipak yo'li sharqiy qismining kattagina uchastkasi, turklar tomonidan nazorat qilinadigan hududda joylashgan edi. Turklar savdo

¹ Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. – T., 2002. B. 17-18.

¹ www.kultura.uz

qilishda unchalik mahoratga ega bo'lishmagan, shu bois savdo ishlaridagi asosiy vositachilik roli, hatto Qpra dengiz va Shimoliy Kavkaz orqali dengiz savdosi bilan ham shug'ullanadigan, so'g'dlar qo'liga o'tadi. Ularning savdo manzillari tarmoqlashgan zich holda, Buyuk ipak yo'lining butun sharqiy uchastkasi bo'ylab, Chanyandan to Samarqandgacha bo'lgan hududlarni egallagan edi. Poykend savdogarlar shahri deb nom olgandi. Bu paytga kelib so'g'diylarning o'zlari ipak ishlab chiqarayotgan va bu mahsulotni boshqa mamlakatlarga sota boshlagan edi. Shimoliy Kavkaz va G'arbiy Yevropa dahmalaridan topilgan, VII-VIII asrlarga mansub so'g'diylarning "zandanechi" deb nomlangan ipak matolari, So'g'diyona ushbu mamlakatlarga ipak yetkazib beruvchi asosiy importchi bo'lib qolganidan dalolat beradi. Mug' tog'ida joylashgan Panjikent hukmdori Divashtichning qasridan topilgan matolar va o'rigan bosh kiyimlarining namunalari, Afrosiyob devorlariga ishlangan liboslarning matolaridagi naqshinkor bezak namunalari, So'g'ddagi to'quvchilik kasbi qay darajaga ko'tarilgani xususida fikr yuritishga imkon beradi.

Imperator Yan-dining (605-617) elchisi, xitoylik Vey-Szening So'g'd aholisi haqidagi hisobotida yozilishicha: "So'g'd aholisining hammasi mohir savdogarlardir. O'g'il bola 5 yoshga to'lganidan so'ng, uni savodini chiqara boshlashadi. U o'qishni bosbJashi bilan, uni savdo ishlarini o'rganishga majbur qilishadi".

So'g'd ixshidlari - markazida to'rt burchakli dumaloq teshigi bo'lgan, xitoycha turdagi tangalar chiqara boshlashgan, Buxoroda esa Sosoniylar shohi Varaxran tangalariga taqlid qilib tangalar zarb qildirishgan.

V-VIII asrlar - Xorazm tarixidagi murakkab davr bo'lib, shoh Afrig' hukmronlik qilib turgan sulola, Afrig'iylar nomi ostidagi, shohlik davrida, O'rta asrlargaxos madaniyat shakllanayotganbirpayt edi. Shu vaqtgamansub arxeologik yodgorliklar Berkutqal'a vohasidan topilgan, bu yerda irrigasiya ishlari keng rivojlangan ekan. Qasr va qal'alar - mustahkamlangan turar-joyli minoralar - donjonlardan iborat bo'lgan. Harbiy istehkomlari rivojlangan tizimli yirik qal'alar jumlasiga- Teshikqal'a, Yakkaparon, Berkutqal'a kabilarni kiritish mumkin. O'rta

Osiyo qishloq xo'jaligida suv yer bilan babbaravar darajada ulkan ro'l o'ynagan. Ziroatchilarni iqtisodiy qaramlikda ushlab turish uchun, dehqonlar irrigasiya inshootlari boshini qulfdan ushlab turishga harakat qilishgan.

Toshkent vohasidagi boshqa mulk - Iloq poytaxti - Tunket shahri bo'lib qoldi. Shaharda radani qayta ishlash va metall eritish bo'yicha ustaxonalar joylashgan.

VI-VIII asrlarda Chochning pul muomalasi turli tanga qiymatlarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ularning old tomoni uchun hukmdorlarning yon tomonga yoki uch chorak burilgan holdagi tasviri xos bo'lsa, orqa tomonida -turli ko'rinishdagi tamg'alar so'g'd yozuvi doirasida berilgan, unda hukmdor nomi, unvoni va viloyatning nomlanishi aks etgan.

Bu paytlarda Farg'ona yozma manbalarda Boxan, Paxanna, Feyxan deb atalgan. Hukmdorlari "ixshid" unvoniga ega bo'lishgan. Farg'onaliklar xalqaro savdolarida faol ishtirok eta boshlaydilar, ajoyib arg'umoqlar, bo'yoq moddalari, dori-darmonlar, rangli shisha va boshqa tovarlarni chetga olib chiqqanlar. 739 yildan e'tiboran Farg'onani turk hukmdorlari boshqara boshladilar. Ayrim manbaa bo'yicha uning poytaxti - Axsikent, boshqasi bo'yicha - Koson bo'lgan.

VII-VIII asrlarda Farg'ona va So'g'dning pul muomalasiga Xitoy bilan aloqalari ta'sir ko'rsata boshladi. Xitoycha tipdagi - o'rtasi to'rt burchak teshikli tangalar zarb qilinib kelgan.

1.2. IX-XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksalishi

VIII asr oxiri - IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan og'ir siyosiy vaziyat abbosiylarning Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o'zgartirishga majbur etdi. Birin-ketin O'rta Osiyoda tohiriylar, safforiylar, somoniylar davlatlari tashkil topdi. Mamlakatda sodir bo'lgan bunday siyosiy o'zgarishlardan so'ng Movarounnahr Xurosondan ajralib o'z mustaqqilligini to'la tiklab olish imkoniga ega bo'ldi. Movarounnahrni birlashtirib mustahkam davlat

tuzgan davlat arbobi Ismoil Somoniy, 900 yilda Xurosonni ham safforiylardan tortib olib ulkan davlat barpo etdi. Xalifa somoniylar davlatini tan olishga va unga hukmronlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ldi. Shu tariqa IX asr oxirlariga kelib Movarounnahr xalqlari Arab xalifaligidan abadiy xalos bo'ladi va arab xalifaligidan mustaqil bo'lgan yirik feodal davlat-Somoniylar davlati tashkil topadi.

Somoniylar mamlakatni boshqarishda davlat ma'muriyatini tashkil etadilar. Mamlakat o'nta devon (devoni vazir, devoni mustafi, devoni amir al-mulk, devoni sohib ash-shurat, devoni sohibi muayid yoki borid, devoni mushrif, devoni mumallikayi xos, devoni muhtasib, devoni avqof, devoni qazo az-ziya) boshqaruvida idora etilgan. Somoniylar hokimiyati yirik zamindorlarning manfaatini himoya qiluvchi mustaqil feodal davlat edi («mulki sultoni», «mulk yerlari», «vaqf yerlari») X asr oxiriga kelib mamlakatda avj olib ketgan o'zaro urushlar uning iqtisodiy va siyosiy qudratiga katta putur etkazdi va somoniylarning qoraxoniylar davlatidan mag'lubiyatga uchrashiga olib keldi. XI asr boshlarida somoniylar davlati hududlarida ikki davlat: qoraxoniylar va qaznaviylar davlatlari paydo bo'ldi.

Qoraxoniylar davlatni el-yurt va viloyatlarga bo'lib idora qildilar. XI-XII asrlarda O'rta Osiyoda mulkchilikning yangi turi - iqta' tartiboti o'rnatiladi («mulki sultoni», «iqta'», «vaqf yerlari», «mulk yerlari»). XII asrning 30-yillari oxirida Movarounnahr Sharqdan kelgan ko'chmanchi Qoraxitoylar hujumiga duchor bo'ldi.

IX-XII asrlarda mamlakat ma'naviy hayotining asosi islom mafkurasidir. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat berdilar. Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markaziga aylandi. Masjid, madrasa va xonaqolar qurish uchun maxsus joylar ajratildi. Arab tili va uning imlosi joriy etildi.

Movarounnahrda ko'p o'tmay hatto ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvini yaxshiroq bilgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Mahalliy bilimdonlar o'z vatanida quvg'in ostiga olinib, ko'pgina tolibi ilmlar xalifalikning markaziy shaharlari - Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa va Basraga borib bilim olishga va arab tilida ijod qilishga majbur bo'ladilar. Davlatni boshqarishda abbosiylar ma'muriyati ko'plab

bilimdon siymolarga muhtoj edi, chunki arablar orasida shu davrda davlat ishiga yaroqli bo'lgan bilimdorlar hali oz, borlari ham zaif edi.

Eng mashhur madaniyat markazi shu davrda Bag'dod shahri edi. Bag'dodda «Bayt-ul hikma» (Donishmandlar uyi) tashkil etilgan edi. «Bayt-ul hikma»da Ahmad Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziylar ta'lim olganlar. IX-X asrlarda O'rta Osiyoda fan ilmiy asoslarga ega edi. IX-XII asrlarda arab tilida asarlar yozgan eng mashhur olimlar Ahmad Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abusalx Masihiy, Abulhayr Xammar, Abunosir Arron va boshqalar edi.

1998 yil Ahmad Farg'oniyni 1220 yilligi nishonlandi. Ahmad Farg'oniy astronom, matematik, geograf edi. Bag'dod yaqinda Raqqoq nomli mavzeda rasadxona qurilishiga boshchilik qilib, astronomiya maktabini tashkil etadi. Uning «Astronomiya asosi», «Samoviy harakatlar», «Yulduzlar haqidagi fan» nomli asarlari mashhurdir.

Muhammad ibn Muso Xorazmiy mashhur matematik, astronom, geograf, tarixchi edi. Vatandoshimiz algebra faniga asos soldi. Uning «Al-jabr», «Zij», «Quyosh soati haqida risola», «Sur'at ul-arz», «Usturlub holati haqida risola» kabi asarlari Sharq va G'arb mamlakatlarida ilmiy fikrlarning rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Abu Nasr Farobiy Sharq falsafasining ulug' mutafakkiri bo'lib, qadimgi dunyo falsafiy merosini saqlashda va rivojlantirishda katta hissa qo'shdi. U 160 dan ortiq asar yozgan, ulardan «Aristotelning «Metofizika» asari maqsadlari haqida», «Musika kitobi», «Baxt-saodatga», «Siyosat al-madoniya» shular jumlasidandir.

Abu Ali ibn Sino ikki sohaga- medisina va falsafaga qiziqdi va bu sohalarda katta yutug'larni qo'lga kiritdi. («Al-qonun fit-tib», «Kitob ush-shifo», «Donishnoma», «Risalat at-tayr»). XVII asrga qadar Yevropada tibbiyot tajribasi va fani Ibn Sino g'oyalari ta'siri ostida bo'lgan.

Xorazm madaniyati xorazmlik ulug' olim **Abu Rayhon Beruniy**ning nomi bilan bog'langan. Abu Rayhon Beruniy 150 dan ortiq ilmiy asar yozgan bo'lib, «O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Meteorologiya» kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. Beruniy ilm-fanning hamma sohalarini yaxshi bilgan qomusiy olim edi. U astronomiya, geologiya, gidrostatika, geografiya, tarix fanlarga katta hissa qo'shdi.

XI-XII asrlarda ijtimoiy fanlar ham anchagina taraqqiy etdi. Masalan, shoir **Abu Abdullo Rudakiy**ning prozaik asarlari, **Abulqosim Firdavsiy**ning «Shohnoma»si, **Gardizi**ning «Zayn-ul-bahor» («Go'zal xabarlar») asari, **Majididdin Admon**ing «Tarixi mulki Turkiston» («Turkiston tarixi»), **Nizomulmulk**ning «Siyosatnoma»si, **Yusuf Xos Xojib**ning «Qutadg'u bilik» asarlari shu davrga oid bo'lib, undan tashqari shu davrlarda **Zamaxshariy**, **Mahmud Qoshg'ariy**, **Amak Buxoriy**, **So'zani Samarqandiy** kabilar ham ijod etdilar.

Bu davr O'rta Osiyoda me'morchilik san'ati ham gurkirab rivojlandi. Buxoroda Dehgaron, Masjidi kalon, Namozgoh, Mag'oki Attoriy masjidлари, Surxondaryodagi Jarqo'ton minorasi, Ko'hna Urganchda Faxriddin Roziy maqbarasi, Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi, Talxojanbobo masjidi va boshqa yodgorliklar me'morchilik san'atining yorqin namunalari hisoblanadi.

IX-XII asrda dunyoviy fanlar bilan birga diniy bilimlar ham keng rivojlandi. Ismoil Buxoriy, Iso Termiziy, Burxonuddin Marg'iloniy, Abu Xafs Kabir Buxoriy kabi ulamolar islom ta'limotining rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida Buxoro shahri markaziy o'rin egalladi. Tasavvuf ta'limoti rivojlanib O'rta Osiyoda uning turli xil yo'nalishlari (XII asrda Turkistonda **Yassaviya**, XIII asr oxirida Xorazmda **Kubroviya**, XIV asrda Buxoroda **Naqshbandiya**) paydo bo'ldi va tarqaldi.

O'rta Osiyo shaharlari o'rta asrlarning rivojlangan davrida juda jo'shqin taraqqiy etadi. Manbalarga ko'ra, IX-X asrlarda shahar aholisi Movarounnahr umum aholi sonining 25-30% ni tashkil etgan. XI asrdan shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi o'zgaradi. Ular to'laligicha hunarmandchilik va savdo-sotiq

markazi qiyofasini olgan. Shuningdek, shaharlarning u yoki bu hunarmandchilik tarmoqlari bo'yicha ixtisoslashuvi jadallashadi. Masalan, Qadimgi Farg'onaning poytaxt bo'lgan Axsikent, Toshkent vohasining Ohangaron daryosi havzalarida qad ko'targan qator shaharlarda - Tunkent, Namudlig', Dahketda metallurgiya sanoati jadal rivojlanadi. Shaharlar maydoni kengayadi, shahriston va uning atrofida joylashgan rabodlarda iqtisodiy hayot taraqqiy etdi.

Somoniylarning mamlakatni boshqaruv tizimidagi markazlashtirish siyosati uning iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlanishiga xizmat qildi. Shaharlar o'sdi va ularning iqtisodiy-savdo aloqalari mustahkamlandi. Masalan, arab tarixchi va geograflarining ta'kidlashicha birgina Shosh va Iloqda bu davrda 50 dan ortiq shaharlar bo'lgan. Arxeologik materiallar va yozma manba'larga ko'ra, Shosh – Iloq vohasi IX-X asrlarda Movarounnahrning yirik metallurgiya xom ashyosi bazasi bo'lgan. Arab tarixchisi Makdisining xabariga qaraganda, bu zaminda oltin va kumush konlari ko'p bo'lib, naqshiga tillo suvi berilgan Shoshning keramika mahsulotlari Sharq olamida mashhur bo'lgan. Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha Shosh - Iloq vohasida metallurgiya sanoati bilan bir qatorda hunarmandchilikning kulolchilik va shishasozlik, to'qimachilik yo'nalishlari ham yuksak darajada rivojlangan edi.

X asr oxirlaridan Movarounnahrda Qoraxoniylar davlati shakllandi. Qoraxoniylar mamlakatni boshqarishda somoniylar davlat boshqaruv tizimidan foydalanadi. Shuningdek, pul zarb etish an'an'alarini ham qabul qilganlar. Buxoro, Iloq shaharlarida kumush pul zarbxonalari bo'lgan. Bu haqda arab tarixchisi Ibn Xavkal «Iloqda oltin va kumush pullar zarbxonalari faoliyat ko'rsatishda davom etardi» deb yozgan edi.

Mazkur davr me'morchiligining eng yorqin namunasi Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasidir. Maqbaraga Ismoil, uning nevarasi Nasr ibn Ahmad dafn qilingan. Maqbara binolarni tuzilishi juda sodda. U kub shaklida bo'lib, tosh gumbaz qilib yopilgan. To'rtburchak xonaning gumbazi sakkizta ravoq ustiga qurilgan va sakkiz qirrali asosga o'rnatilgan. Ravoqlardan 4 tasi xonaning tepa burchaklariga qurilgan. Binoning tepasida yorug'lik teshiklari o'rnatilgan. maqbaraning to'rttala old tomoni ham

bir xilda ishlangan. Har qaysi devorning o'rtasiga katta ravoq o'rnatilgan, burchaklari esa uch chorakli mustahkam g'isht ustunlar bilan ishlangan. Devorlarning ichi va tashqi tomoni naqshkor g'isht bilan ishlangan. Maqbara qurilishida O'rta Osiyo an'anaviy me'morchiligini yanada rivojlanganligini ko'rish mumkin.

X asrda Tim qishlog'ida qurilgan Arabota maqbarasi ham O'rta Osiyo me'morchiligining noyob durdonalaridan hisoblanadi. Maqbara X asrning 70-yillarida (977 y.) qurilgan. Arabota maqbarasi XI-XII asrlar O'rta Osiyo me'morchiligining yangi bosqichga ko'tarilishi davri namunasidir. Binoning katta ravoqli baland peshtoqli naqshlar bilan ishlangan, peshtoq atrofida o'ymakor naqsh bilan arab harflari yozilgan.

Afrosiyob, Varaxsha, Poykand va boshqa qadimiy shahar xarobalaridagi bino qoldiqlari o'rganilgan. Afrosiyobning g'arbiy qismidagi juda katta bino xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, devorlari ganch naqshlari bilan bezatilgan. Ganch suvog'idan yelimli bo'yoq bilan solingan uchta odam siymosi tasvirlangan rasm topildi.

1960-1964 yillarda O'z FA arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan yuqoridagi saroy xarobalari bilan birga mustahkam devor bilan o'rab olingan bir nechta binolar topildi. U xona, yo'lak va hovlidan iborat edi. Bino xonalari naqshlar bilan bezatilgan, polga pishgan g'isht to'shalgan. Derazalarga rangdor oynalar ishlatilgan. Afrosiyobdan VII asrda o'ymakorlik keng yoyilganligini ko'rish mumkin. Varaxsha va Afrosiyob aholisining uylari devorlari ganch suvoq qilingan va naqshlangan.

Me'morchilikda turli bezakli uslublardan foydalanila boshlangan. IX-X asrlarda arab imlosining islimiy, kufiy, XI asrdan nasx turlaridan foydalanila boshlangan; pishiq g'ishtlar och malla rangda bo'lgan. XII asrdan boshlab rangli koshinlardan foydalanila boshlangan, musulmon inshootlarida moviy, yashil, zangori koshinlardan keng foydalanilgan. Bu davrda tasviriy san'at va naqqoshlikda murakkab o'simlik-geometrik gulli naqshlar ishlatilgan. X asrning ikkinchi yarmida Samarqand guzarlarida uy hayvonlari tasvirlari sotilgan (Ibn Xavqal). X asr o'rtalarida Buxoroda "sanamlar" sotilgan (Narshaxiy). Afrosiyobdan topilgan sopol idishlar kulolchilik rivojlanganidan dalolatdir.

Bu davrdagi musulmon me'morchiligining eng ko'zga ko'ringan inshootlari orasida masjidlar alohida ahamiyatga egadir. Ularning uch turi mavjud bo'lgan: Jome

(Juma) masjidi (shaharda juma va Hayit namozlari o'qiladigan umumshahar aholisi uchun), guzar masjidleri (mahallalarda kunlik namozlarni o'qishga mo'ljallangan), Namozgoh (shahar tashqarisidagi yo'lovchi va karvondagilar uchun mo'ljallangan) masjidlar. Masjidlarning diqqatga sazovor jihati ibodat qilinadigan mehrobi g'arbga, qiblaga – Makka tarafga qaratib quriladi.

Masjidlar uchun alohida xususiyatga ega bo'lgan jihat bu minoralardir. Minoralar musulmonlarni namozga chorlashda muhim ahamiyat kasb etgan. 1127 yilda Buxoroda Minorai Kalon, 1196-1198 yillarda Vobkent minorasi, 1108-1109 yillarda Jarqo'rg'on minorasi quriladi. Minoralarning har bir «belbog'i» ga alohida rang bilan o'zgacha zeb berilgan.

Arxeologik qazishlar natijasida IX-X asrlarga oid Termizdagi Chorsutun, Buxorodagi Mag'oki Attor masjidleri qoldiqlari topildi. Har ikkala binoning gumbazli tomi g'ishtdan ishlangan yumaloq ustunlar ustida turadi.

Maqbaralar ham alohida diqqatga sazovordir. Islom dini O'rta Osiyo aholisi tomonidan qabul qilingach, hukmron sulola vakillari ajdodlari, o'zlari va avlodlari uchun maqbaralar qurdirganlar. Miyondagi Abu Said maqbarasi (1051 y.), Seraxs (Turkmaniston) da Seraxsbobo yoki Abul Fazl maqbarasi (1125 y.), Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi (XII asrning 40-yillari) ilk maqbaralar sirasiga kiradi. Samarqanddagi Shohi Zindadagi ayrim maqbaralar XII asrga oiddir. Urganchdagi El-Arslon va Takeshning (Ko'xna Urganch) maqbaralari, Xorazmdan XI-XIII asrlarga oid Bo'ronqal'a, Noibqal'a, Qavatqal'a chorbog'lari, Faxriddin Roziy va shayx Sharif mozori maqbaralari saqlanib qolgan., Termiz yaqinidagi Sulton Saodat majmuasi, O'zgandagi Qoraxoniylar maqbarasi ham diqqatga sazovordir.

Jamoat binolari orasida Termiz atrofidan IX asrga mansub xom g'ishtdan qilingan Qirqqiz nomli chorbog'-saroy xarobalari topilgan bo'lib, u to'rtburchak shaklda qurilgan va gumbazga ega bo'lgan. Buxoro-Navoiy viloyatlari oralig'ida joylashgan Raboti Malik karvonsaroyi qoldiqlari ham diqqatga sazovor bo'lib, uning peshtoq qismigina saqlanib qolgan.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kulolchilik, shishasozlik, zargarlik, misgarlik, temirchilik, umuman olganda mavjud yirik shaarlarda hunarmandchilikning 32 dan ortiq

turi mavjud bo'lgan. Kulolchilikda sirdan foydalanila boshlanib, turli epigrafik tasvirlar bilan birga turli hayvon va qushlarning tasvirlaridan ham foydalanila boshlangan. Kulolchilikda o'ziga xos maktablar – Marv, Niso, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Tarozi, Kesh kulolchilik maktablari va markazlari paydo bo'lgan.

XII asr oxiri – XIII asrga kelib kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda sifati kamayib, yashil rang bilan anglab bo'lmas suratlar chizilgan. Buni bevosita ko'chmanchi xalqlar bilan olib borilgan o'zaro madaniy aloqalar, qolaversa mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kelishi bilan bog'liqdir.

XIII asrning boshlariga kelib (1206-1215) Mo'g'ulistonda **Chingizxon** hukmronligida ko'chmanchi mo'g'ullarning ulkan davlati paydo bo'ldi. Bu davrda O'rta Osiyo hududlarida xorazmshohlar davlati mavjud bo'lib, o'zaro urushlar va boshboshdoqlik oqibatida bu qudratli saltanat inqirozga yuz tuta boshlagan davr edi. Chingizxon bilan Muhammad Xorazmshoh o'rtasida qisqa muddat (1215-1218) elchilik munosabatlari davom etgan bo'lishiga qaramay bu munosabatlar oxir-oqibat fojiali tugadi. G'arbiy jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rgan mo'g'ul qo'shinlari xorazmshohlar davlatidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tushkunlik vaziyatidan foydalanib, qisqa muddatda (1218-1221) O'rta Osiyo yerlarini bosib oladilar.

Asrlar davomida moddiy va ma'naviy madaniyati rivojlanib kelgan O'rta Osiyodagi ko'pgina shaharlar - Buxoro, Samarqand, Xo'jand, Termiz, O'tror, O'zgan, Urganch, Naxshab (Nasaf), Kesh kabilar vayronaga aylantirildi. Dehqonchilik vohalari xarobazorga aylandi. Mo'g'ul bosqinchlari mahalliy aholiga hamda ularning madaniyatiga hech bir shafqat qilmadilar. Arab tarixchisi Ibn al-Asir (1160-1214) O'rta Osiyodagi mo'g'ul bosqini haqida shunday yozadi: «...Xitoy chegaralaridan bir xalq chiqib, Turkistondagi QashQar va Balasog'un kabi viloyatlarni, Movarounnahrda Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarni... vayron etib, qirg'in qilib, talon-toroj qilib egalladi. Tatarlar (mo'g'ullar) hech qaysi shaharni omon qoldirmadilar, ketayotib vayron etdilar. Ular nimaniki yonidan o'tgan bo'lsalar, o'zlariga yoqmagan narsalarga o't qo'yidilar».

Bosqinchilar to's-to'poloni vaqtida Buxoroda, Samarqandda, Urganchda bir nechta kutubxonalar yonib ketdi. Misol uchun Buxoroda «Ma'sudiya» madrasasi va katta kutubxona yonib ketdi. Faqat XIII asrning 70-80- yillariga kelib O'rta Osiyoda asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, shahar hayoti, hunarmandchilik jonlana boshlandi. Mo'g'ul bosqini davrida inqirozga yuz tutgan fan-adabiyot, ma'rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlaydi. XIII asrda Buxoroda «Mas'udiya» va «Xoniya» madrasalari qurildi. Jaloliddin Rumiy, Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy kabilar adabiyot sohasida ijod etdilar. Undan tashqari Abu Umar Mirxojiddin Jusjoniyni «Tabaqoti Nosiriy», Alouddin Otamalik Juvayniyni «Tarixi jahon gushay» («Jahon fotihlari tarixi»), Fazlulloh Rashididdinning «Jome at-tavorix» («Tarixlar to'plami») kabi tarixiy asarlari yaratiladi.

II BOB. SO'G'D HUDUDIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK IZLANISHLARNING TARIXIY AHAMIYATI

Qadimgi So'g'd hududida katta-kichik shaharlar, qo'rg'onlar ko'p bo'lgan. Ularning har birining o'z husn-tarovati, go'zalligi, jozibasi bo'lgan. Ular orasida eng qadimiysi Samarqand shahri bo'lib, bu shaharning nomi tilga olinganda ko'z o'ngimizda doimo uning o'tmishi, buguni va kelajagini ifodalaydigan osori-atiqalari namoyon bo'ladi. Tarixchilarning fikricha, Samarqand shahar sifatida juda erta mashhur bo'lgan. Bunga sabab, avvalo uning sahovatli tabiati, dunyoning to'rt tarafini bog'lab turgan savdo yo'llari kesishgan chorrahada joylashganligi, aholisining tadbirkorligi, hunarmandchilik va savdoda tengi yo'qligi va afsonalarga aylanib ketgan boyligi bo'lgan.

Boy tarixi, betakror ma'naviyati va ma'rifati, madaniyati bilan dunyo ahli diqqatini o'ziga tortgan Samarqand – jahonning eng qadimiy shaharlarining oldingi qatorlaridadir. Olimlar uni qadimda Rim, Vavilon, Afina va dunyoning boshqa shu kabi ko'hna shaharlari bilan teng yoshda, deb hisoblaydilar. Yevropa sivilizatsiyasining shakllanishida Rim qanday rol o'ynagan bo'lsa, Markaziy Osiyo tamaddunida, ma'naviyat va ma'rifat tarixida Samarqand shunday yuksak o'rin tutadi. Shu bois o'rta asrlardan Sharqda ommalashib ketgan maqollardan birida “G'arbda Rim, Sharqda Samarqand” deyiladi. Samarqand va Rim insoniyat taqdiridagi buyuk xizmatlarini nazarda tutib “Boqiy shaharlar” nomini olganlar. Xalq iborasi “Samarqand sayqali ro'yi zaminast” (Samarqand er yuzining sayqali) behuda aytilmagan⁴.

“Samarqand” so'zining kelib chiqishi to'g'risida bir qancha taxmin va gipotezalar mavjud. Haqiqatga yaqinrog'i esa Marokanda - Samarqandning yunoncha nomi. Aslida Samarqandning qadimiy nomi So'g'd yozma manbalarida “Smarakansa” (Smarakansa) bo'lib, uni yunon tarixchilari Marokanda deb yunonchaga ag'darib olganlar. Samarqandning Marokanda nomi XVII asrdan so'ng

⁴ Самарканд 2750. – Т., 2007.

Yevropa tarixchilarining asarlari orqali kirib kelgan. Yunon mualliflari Arrian, Strabon va Kvint Kursiy Ruflarning ma'lumotlariga ko'ra, miloddan avvalgi 329 yilda Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari Hindikushdan oshib o'tib, Marokandani zabt etib, vayron qilgan.

Kvint Kursiy Ruf jumladan, bunday yozadi: “Tog'li qabiladan shikast egan Iskandar to'rtinchi kuni Marokand (Samarqand) shahriga etdi. Shahar devori etmish stadiy uzunlikda bo'lib, Shahriston (ichki qal'a) boshqa devor bilan o'ralgan edi. U shahar mudofaasi uchun ming nafar jangchini qoldirib, atrof-tevarakdagi qishloqlarga hujum qildi: ularni taladi va yondirdi. So'ng u Tanais daryosi sari yurdi va to'rt kun o'tib Marokandga qaytdi... U go'zal shahar bo'lib, atrofdan aylanib oqadigan daryo tufayli yaxshi muhofaza etilgan edi...” Diadorning yozishicha, Iskandar 120 ming so'g'diyonalikni qatl etgan. Bu yerda behisob boylik to'plab, yurtiga jo'natib turgan. Masalan, bir galgi talangan boylikni yuklash uchun o'n ming juft qo'tos va uch ming tuya kerak bo'lgan. So'g'diylar ibodatxonasidan bir olishda 50 ming talant tillani qo'lga kiritgan...

Marokanda miloddan avvalgi VIII asrdan to milodning IX asrigacha so'g'diycha Smarakansa, so'ng forsiycha Samarqand, IX asrdan turkiycha Semizkent nomi bilan manbalarda uchraydi. Keyinroq Samarqand nomi shaharning mutloq nomiga aylandi. Uning Afrosiyob nomi esa shaharning qadimiy Qal'ai Hisor – Ko'hna qal'a qismiga nisbatan XVII asrdan boshlab mahalliy aholi tomonidan ishlatila boshlangan.

Samarqandni arxeologik jihatdan o'rganish ishlari XIX asrning oxirlarida boshlangan. 1895 yilda sharqshunos olim V.V.Bartoldning tashabbusi bilan tuzilgan “Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi” a'zolari Samarqanddagi Afrosiyobni ko'p asrlar xazinasi deb qarab, unda keng ko'lamdagi arxeologik qazilma ishlarini olib bordilar. V.L.Vyatkin, N.I.Veselovskiylar o'tkazgan arxeologik qazilmalar natijasida turli holdagi qadimiy buyumlar topilib, muzeyga berildi. 1908 yilda V.L.Vyatkin Samarqand chekkasida joylashgan Ulug'bek

rasadxonasining o'rnini aniqladi va qazish ishlarini o'tkazdi. Natijada rasadxona xarobasi hamda uning yer ostidagi butun qolgan qismi qazib ochildi⁵.

Ikkinchi jahon urushidan keyin O'zbekiston FA ning Tarix va arxeologiya instituti olimlaridan A.I. Teryonojkin tomonidan Afrosiyobda jiddiy dala tadqiqotlari o'tkazildi. Natijada uning eng pastki qatlamidan miloddan avvalgi VI-V asrlarga taalluqli buyumlar, uy-joy xarobalari topildi. V.A.Shishkin va Ya.G'. G'ulomovlar rahbarligida olib borilgan keng ko'lamli arxeologik qazishlar natijasida qadimiy madaniy qatlam materiallari Afrosiyobning boshqa joylaridan ham topildi. 1966 yil 13 iyulda Afrosiyobni arxeologik jihatdan kompleks o'rganishni tashkil etish maqsadida Respublika hukumatining maxsus qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, Afrosiyob "arxeologik qo'riqxonasi" deb e'lon qilinib, uni o'rganish ishiga Toshkent (hozirgi O'zMU) va Samarqand davlat universitetlari hamda San'atshunoslik instituti ham safarbar etildi. Aniq ilmiy rejalar asosida boshlangan arxeologik tadqiqotlar tufayli nafaqat shaharning ko'p asrlik yoshi, balki uning turli davrlardagi tarixiy topografiyasi, shahar tarkibi, shahar hayotining rivojlanish bosqichlari, bosqinlar tufayli yuz bergan bo'ronlar davri aniqlandi. Samarqand ixshidlarining shohona saroyi ochildi.

1970 yilda Samarqandda O'zbekiston FAning mustaqil Arxeologiya instituti tashkil etildi. Arxeologik qazishmalar natijasida Samarqandning yoshi aniqlandi va 1970 yilda shaharning 2500 yillik yubileyi keng nishonlandi.

Mustaqillik yillarida arxeologik qazish va ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida fransiyalik akademik, sharqshunos arxeologlar Pol Bernar va Frans Grene, o'zbek arxeolog olimlari professor M.Isomiddinov, A.Anorboyev va tadqiqotchi A.Otaxo'jaevlar bilan hamkorlikda ishladilar. Natijada, Afrosiyobdagi eng quyi madaniy qatlamlarni o'rganish jarayonida ersathidan 10-15 m. chuqurlikda miloddan avvalgi IX-VII asr o'rtalariga oid ashyolar topildi. Bular qo'lda yasab rangli naqsh berilgan sopol idishlarning parchalari, 7 metr qalinlikdagi guvaladan tiklangan mudofaa devori qoldiqlari va boshqalar.

⁵ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., 2001; Афрасиаб. Вып. 1. – Т., 1969; Афрасиаб. Вып. 2. – Т., 1973; Афрасиаб. Вып. 3. – Т., 1974; Афрасиаб. Вып. 4. – Т., 1975.

Topilgan ushbu namunalar Fransiyada radiokarbon tadqiqot usulida o'rganildi va ular miloddan avvalgi VIII asrga, ya'ni 2750 yoshga taalluqliligi isbotlandi⁶.

Qashqadaryo vohasi uzoq o'tmishga ega. Arxeologlar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida tosh davriga oid makonlar topilgan. XX asrning 50-yillaridayoq vohada qadimgi odamlar yashaganligi V.Lev va S.K. Kabanov tomonidan taxmin etilgan edi.

Ilk temir davrida urbanizatsiya jarayoni kuchayib, So'g'dning janubiy qismi hisoblangan Qashqadaryo vohasida ham ilk shaharsozlik madaniyati vujudga keladi. Buni Podayotoqtepa, Sangirtepa, Uzunqir va Yerqo'rg'on misolida ko'rish mumkin. Podayotoqtepa, Sangirtepa va Uzunqir yodgorliklari XX asrning 80-yillaridan boshlab hozirgi O'zMU arxeologiya kafedrasida bazasida tashkil etilgan Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasining A.Sagdullayev boshchiligidagi otryad tomonidan o'rganila boshlangan.

XX asrning 20-yillaridan turli tadqiqotchilar nazariga tusha boshlagan Yerqo'rg'on yodgorligida tadqiqot ishlari asosan Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda S.K. Kabanov va M.Y. Massonlar tomonidan olib borilgan bo'lsa, 1973 yildan O'zR FA Arxeologiya institutining R.H.Sulaymonov rahbarligi ostida tuzilgan Qashqadaryo ekspeditsiyasi tomonidan deyarli 30 yil davomida o'rganildi. Natijada vohada shaharsozlik madaniyati bundan 2700 yil avval paydo bo'lganligi aniqlandi⁷.

Buxoro – butun Sharqning ma'naviy va diniy markazi sifatida ming yillardan buyon dunyoga mashhur qadimiy shaharlardan biridir. O'tmishda savdo-sotiq va madaniy markaz sifatida Turon – Turkistonda Balx, Hirot, Marv (Mari), Samarqand, Termiz, Nasaf (Qarshi), Choch-Shosh (Toshkent) va Xorazm-Xiva va Urganch kabi shaharlar orasida o'z o'rniga ega.

Ilk o'rta asrlar Xitoy manbalarida turlicha (An, Ansi, Ango, Buxo, Buku, Buxe, Buxaer, Buxuaer, Buxala, Buxuala, Fuxo, Puxuala va b.) atalgan. Bu

⁶ Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Т., 2002.

⁷ Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). – Т., 1984; Кabanov С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековья. – Т., 1977; Кabanov С.К. Культура сельских поселений Южного Согда III-VI вв. – Т., 1981; Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. – Т., 1973.

atamalarning avvalgi uchasi Buxoroning xitoycha nomlari bo'lib, qolgani “Buxoro” so'zining xitoy tilidagi talaffuzidir. O'rta asr arab manbalarida esa Buxoro Numijkat, Navmichkat, Bumichkat (Yangi qo'rg'on), al-Madina as-sufriyya (Mis shahar), Madinat at-tujjor (Savdogarlar shahri), Foxira (Faxrli shahar), kabi nomlar bilan tilga olingan. Buxoro atamasi sanskritcha “vixara” so'zining turkmo'g'ulcha shakli – “buxor” (“ibodatxona”) dan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Keyingi tadqiqotlar natijalariga ko'ra bu atama so'g'diycha “bug” yoki “bag” (“tangri”) hamda oro (“jamol”) so'zlaridan iborat bo'lib, “tangri jamoli” degan ma'noni bildiradi, degan fikr ilgari surilmoqda. O'rta asrlarda Buxoro Movarounnahrda yirik savdo, hunarmandchilik va ma'muriy markazlaridan bo'lgan. Aynan shu shahardan Yaqin va O'rta Sharqni Hindiston va Xitoy bilan bog'lovchi xalqaro karvon yo'li o'tgan⁸.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov e'tirof etganidek: “Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda...

Bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali-hanuz o'zining ko'rku tarovatini saqlab kelayotgan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi”⁹.

Buxoro vohasini arxeologik jihatdan o'rganish XX asrning 30-yillaridan boshlagan. Uni turli yillarda yirik arxeolog olimlar o'rganishgan: Ya.G'. G'ulomov, A.R. Muhammadjonov, V.A. Shishkin, V.A. Nilsen, A.A. Asqarov, O'.Islomov, M.R. Qosimov, M.Bulatova, X.Muhammedov, R.H. Suleymanov, I.Axrorov, T.Mirsoatov, O.V. Obelchenko, S.K. Kabanov, G.V. Shishkina, J.K. Mirzaahmedov, N.B. Nemseva, Sh.Odilov va boshqalar. Buxoro va uning atrofida olib borilgan ko'p yillik arxeologik tadqiqotlar natijasida vohaning qadimgi tosh, bronza davriga o'xshash yodgorliklar tadqiq etilib, bu yerda yashagan aholining

⁸ Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. – Т., 2002.

⁹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 30.

o'troqlashishi, chorvachilik va dehqonchilik xo'jaligining tarkib topishi, katta va kichik shaharlarning paydo bo'lishi, shuningdek Zarafshon daryosining quyi oqimida shaharsozlik va davlatchilik tarixi bilan bog'liq urbanizatsiya jarayonining rivojlanishiga doir ko'plab ma'lumotlar to'plandi.

Buxoro vohasida mil. avv. birinchi ming yillikda sun'iy sug'orish tarmoqlari v mustahkamlangan qishloq manzilgohlari vujudga kela boshlagan. Zarafshon daryosining qadimgi tarmog'i – Shohrud bo'ylaridagi dastlabki qishloqlarning, jumladan hozirgi Buxoro o'rnida bo'lgan qishloqning barpo bo'lishi aynan shu davrga to'g'ri keladi.

XX asrning 70-yillarida Buxoroning eski shahar qismida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Buxoroni arxeologik jihatdan o'rganish tarixida birinchi marta materik qatlamlar qadar etib borishga va madaniy qatlamlanish chuqurligi 20 m dan ortiq ekanligini aniqlashga muvaffaq bo'lindi. Mir Arab madrasasi yaqinida olib borilgan qazuv ishlari jarayonida materik qatlam ustida to'q jigarrang torf qatlami (40-70 sm) borligi, uning ichida esa yovvoyi va xonaki hayvonlar suyaklari qoldiqlari hamda sopol idish va buyumlar parchalari ko'p ekanligi aniq bo'ldi. Torf qatlami madrasa tomon tobora qalinlashib borib, bino ostiga kelganda qalinligi 7,5 m ga etgan. Bu esa qadimda Buxoro hududidan Zarafshon daryosi tarmoqlaridan biri – ilk o'rta asr manbalarida qayd etilgan “Rudizar” (“Oltin irmoq”) ning o'tganligini tasdiqlaydi. Arxeologik tadqiqotlar keyinchalik qurib qolgan mazkur tarmoqning haar ikki qirg'og'i bo'ylab bir qancha mustahkamlangan qishloqlarning vujudga kelgani va ular Buxoroning eng qadimgi shahar o'zagini tashkil qilganini tasdiqlaydi. Shahar o'zagi 3 qism – “Oltin irmoq” ning o'ng qirg'og'ida joylashgan ark, ya'ni qal'a hamda uning o'ng va so'l qirg'oqlaridagi qishloqlaridan iborat bo'lgan. Bu erdan topilgan ko'plab ashyoviy dalillar, xususan sopol idishlar va buyumlar Buxoro tarixning turli davrlari (mil. avv. 1-ming yillikning 3-choragidan XX asr boshlariga qadar) ga oid bo'lib, ulardan ikkitasi mil. avv. V asrga taalluqli ekanligi aniqlandi.

XX asrning 80-90-yillarida shaharning tarixini aniqlash borasida keng ko'lamli arxeologik tadqiqot ishlari yirik yodgorliklarda – Poykend, Qo'rhoni

Vardonze, Romitan, Varaxsha, Xoja Bo'ston, Qo'zimontepa, Oqsochtepa va boshqa shahar xarobalarida olib borildi. Natijada 1997 yilning oktyabr oyida Buxoro shahrining 2500 yilligi keng nishonlandi¹⁰.

Mustaqillik yillarida ham Buxoroda arxeologik tadqiqot ishlari davom ettirilib, bugungi kunda asosan o'zbek arxeologlari Davlat Ermitaji arxeologlari bilan birga qazuv ishlarini olib borishmoqdaki, voha tarixiga oid juda qiziqarli ma'lumotlar topilib, keng jamoatchilikka yetkazilmoqda.

¹⁰ Мухаммаджонов А.Р. Қадимги Бухоро. – Т., 1990; Темур ва темурийлар салтанати. – Т., 1994; Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Б. Средневековый город Средней Азии. – Л., 1973; История Бухары. – Т., 1976; Булатова М. Мавзолей Саманидов - жемчужина архитектуры Средней Азии. – Т., 1978; Культура древнебухарского оазиса III-VI вв. н.э. – Т., Фан, 1983; Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – М., 1989; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. Т., 1989; Аскарлов А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы Средней Азии. – Самарканд, 1993; Бухара – жемчужина Востока. – Т., 1997.

III BOB. V-XIII ASRLARDA QASHQADARYO VOHASINING MODDIY MADANIYATI

3.1. V-XIII asrlarga oid Qashqadaryo vohasidagi arxeologik yodgorliklarning o'rganilishi

Qashqadaryo vohasidagi Shahrisabz va Qarshi shahrlarining 2700 yilligi keng nishonlandi. Aslida bu tarixiy shaharlarning yoshi qanday aniqlandi, ularning ilgarigi nomi nima edi?

Bundan 50-60 yil ilgari bu savollarga hatto mutaxassis olimlar ham javob bera olishmasdi. Chunki bu masalalarni faqat qazishma ishlarini o'tkazgandan keyin va olingan ashyolarni ko'plab yozma manbalar bilan solishtirgandan so'nggina aniqlash mumkin edi. Masalan, 1888 yili Turkiston general-gubernatorligining maxsus topshirig'i bilan Buxoroga ketayotgan V.Krestovski Qarshi shahridan bir tosh (taxminan 8 kilometr) narida Shullik degan qishloqning yonida qadimgi shahar xarobasi yotganligini yozib qoldiradi.

1895-1910 yillarda rus ofitseri va rassomi B.Litvinov ham Shulluktepani borib ko'rganini yozib qoldirgan. 1910 yili rus geograf olimlaridan biri D.Logofet Qarshi shahri atroflarida pishiq g'ishtdan qurilgan uylarning ko'pligi va ularning ayrimlari rangli plitalar bilan qoplanganligi haqida ma'lumotlar qoldirgan.

Nima bo'lganda ham Qarshi vohasida arxeologik izlanishlar boshlanguniga qadar shaharning qadimgi tarixi to'g'risida deyarli ma'lumotlar yo'q edi. Qashqadaryoda bunday arxeologik izlanishlar olib borish faqat ikkinchi jahon urushi tugagandan keyingina boshlandi. 1946-1949 yillari S.Kabanov Yerqo'rg'onda qazishma ishlari olib borib, shahar xarobasining janubi-sharqiy qismida III-V asrlarga oid kulolchilik bilan kun kechirgan xonadonni topadi. Olim shaharning quyi qatlamlarini bilishga harakat qilib, u taxminan miloddan avvalgi II – I asrlarga oid bo'lishi mumkin hamda shaharning o'zini esa Xitoy yozma manbalarida eslatilgan Nashebo yoki Nashebolo viloyatining bosh shahri Bolo bo'lishi kerak, deydi.

1963-1966 yillarda Qarshi vohasidagi eng yirik shahar xarobasini Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU) ning M.Masson boshchiligidagi Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi o'rgandi. Ushbu ekspeditsiya izlanishlarining natijasi sifatida vujudga kelgan M.Massonning¹¹ monografiyasida Qarshi vohasidagi Yerqo'rg'on yodgorligini Aleksandr Makedonskiy yurishlari bayon etilgan yunon manbalaridagi Navtaka shahri bilan bog'laydi. Yunon tarixchisi Arrianning yozishicha, «miloddan avvalgi 328 yili Makedonskiyning Ken, Krater, Fratefern va Stanazor kabi lashkarboshlari o'zlarining otryadlari bilan Navtakaga, Makedonskiy oldiga kelishdi. Bu paytda qish avjida edi. U qo'shinlariga Navtaka atroflariga joylashib, dam olishga buyruq berdi».

M.Masson yunon manbalarida keltirilgan Navtaka aynan Yerqo'rg'on xarobalari ekanligini yozadi. Ammo bu fikrni isbotlaydigan manba yo'q edi. Buni faqat arxeologik qazishmalar olib borish bilangina tasdiqlash mumkin edi. Bunday imkoniyat faqat 1973 yilda, O'zRFA Arxeologiya institutining R.Sulaymonov boshchiligidagi Qashqadaryo ekspeditsiyasi vohada ish boshlagandan keyingina amalga oshdi. Ekspeditsiya ishlari boshlangani bilan qadimgi qatlamlar yoshini aniqlash muammosi turar edi. Bu ish XX asrning 70-yillari oxirida hal bo'ldi.

Bu davrga kelib Yerqo'rg'onning turli joylarida qazishmalar o'tkazilishi natijasida hokim saroyi va qal'asi, shahar ibodatxonasi, dahma, kulollar va temirchilar mahallalari kabi shahar xarobasining ilgari ma'lum bo'lmagan qismlari ochildi. Shundan keyin haqiqatan ham Yerqo'rg'on Qarshi vohasidagi dastlabki poytaxt shahar ekanligi, u yunon manbalarida keltirilgan Navtaka emas, balki Naxshab yoki Nikshapaya (Ksenippa) degan to'xtamga kelindi¹². Arxeolog M.Turebekov Yerqo'rg'onning ichki va tashqi mudofaa devorlarini o'rganib, ichki devorni miloddan avvalgi VI-Vasrlarga, tashqi devorni esa miloddanning IV asrlariga tegishli ekanligini aniqladi. R.Sulaymonov esa bu fikrlarga qo'shilgan

¹¹ Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времён. – Т., 1973. – 98 с.

¹² Грене Ф. Заметки о топониме Наутака // «Роль города Шахрисабза в мировой истории». Сбор. тез. докл. Междунар. конф., посвящ. 2700-летию г. Шахрисабза. – Т.: 2002. – С. 10-11; Шакед С. Раннее упоминание о городе Нахшаб // «Роль города Карши в истории мировой цивилизации». Сбор. тез. докл. междунар. конф., посвящ. 2700-летию г. Карши. – Т.: 2006. – С. 34.

holda tashqi mudofaa devorining qurilishini miloddan avvalgi II asrlar bilan davrlashtirdi.

Akademik Edvard Rtveladze yunon tarixchilari keltirgan Navtaka haqiqatdan Kesh vohasida bo'lgan, lekin Ksenippa shahri Qarshi vohasidagi Yerqo'rg'on o'rnida bo'lgan, deydi¹³. Bunday deyilishiga asosiy sabab, o'sha yozma manbalarda Navtaka atroflarida tog'li hududlar borligi, aksincha Ksenippa hududi ko'proq cho'l bilan, ya'ni chorvador aholi yashaydigan hududlar bilan chegaradosh ekanligi haqidagi ma'lumotlar edi.

Shu xulosaga yaqin fikrni K.Shamsiddinov ham qo'llab-quvvatlab, hozirgi Koson nomida qadimgi Ksenippaning aks-sadosi yashirilib yotadi, deydi. Ya'ni Koson shahri va uning atroflari Yerqo'rg'ondan 10 kilometr quyida joylashganligi uchun unga suv shu tomondan borgan, shuning uchun Kassinob (Kosson suvi, Ksenippa suvi ma'nosida) Kosonga aylanib ketgan, deydi).

Milodning III-V asrlaridan boshlab Xitoy manbalarida butun Qarshi vohasi Naxshab, deb atalishi va uning asosiy yirik shahri Bolo bo'lib, unda podshohning qarorgohi borligi to'g'risida ma'lumot beriladi. M.Masson Naxshabning ma'nosini tushuntirishga harakat qilib, o'sha paytlarda xalq orasida saqlanib qolgan bir rivoyatga e'tibor qaratadi. Unga ko'ra bahor oyi kechalaridan birida chiltonlar Qashqadaryoning bo'yiga maslahatga to'planishibdi. Ularning kattalaridan biri barchaning kayfiyatini ifodalab «nag'z shab», ya'ni «qanday ajoyib kecha», degan ekan. Qolganlar uni sug'd tiliga moslab «Naxshab», deb atashgan ekan. Sug'd tilidagi Naxshabning ham, fors tilidagi Nag'zshabning ham o'zagi bir bo'lib, «yorug'», «yog'duli», «oydin» ma'nolarini beradi, deydi. Shuningdek, M.Masson Qarshi temiryo'l vokzalining yonidagi Qal'ai Zaxoki Maron aynan shu Naxshab viloyatining markazi Bolo shahrining xarobasi deb aytadi.

Nima bo'lganda ham O'rta Osiyoni arablar istilo qilayotgan paytda Qarshi vohasi arablarga qarshi kurashning asosiy markazlaridan biriga aylandi. Bu paytga kelib Naxshabning ham iqtisodiy, ham siyosiy markazi Qashqadaryoning bo'yiga, mahalliy aholi tomonidan hozirgi Shulluktepa deb ataladigan joyga ko'chgan edi.

¹³ Ртвеладзе Э.В. Александр Македонский в Бактрии и Согдиане. – Т.: 2002. – С. 123-124.

Arablar vohani o'zlarining tiliga moslab Nasaf deb atashadi. Bu to'g'rida ko'plab arab yozma manbalari xabar beradi. Ularda IX-XIII asrlarda Nasafning iqtisodi va madaniyati rivojlanganligi hamda Nasaf Qashqadaryoning ikki yoqasida joylashgani qayd etiladi.

Shunday gullab-yashnagan shahar mo'g'ullar istilosi davrida er bilan yakson qilindi. O'rta Osiyodagi deyarli barcha qadimiy shaharlar Chingizxon istilosidan keyin o'z joyini o'zgartirdi. Mahalliy aholi tasavvurida yovuz qo'shin oldida hech qanday mudofaa devori, qal'a dosh berolmaydi degan his paydo bo'ladi. Shundan keyin odamlar bunday qal'a shaharlarni tashlab, hozirgi qishloq va shaharlarni egallashadi. Qarshi vohasida ham, shuningdek, Samarqandda ham eski shaharlar butunlay tashlab ketildi. Hozirgi Samarqand ham, Qarshi shahri ham aynan mo'g'ullar istilosidan keyin yangi makonda vujudga kelgan.

Endi ikki og'iz so'z Qarshi shahrining yoshi to'g'risida. Yuqorida keltirilgan olimlarning izlanishlari natijasida shaharning miloddan avvalgi VI-V asrlarda qurilganligi aniqlangan edi. Gap shundaki, o'tgan asrning 70-yillari oxirida Yerqo'rg'onning kulollar mahallasida qazishmalar olib borganimizda faqat bir-ikki erda miloddan avvalgi X-VIII asrlarga oid qatlamlar borligi aniqlangandi. 1998–1999 yili yana qazishmalar o'tkazishga imkon tug'ildi. Shundan keyin 20 yil avval o'rganilgan qazilma bir metr kengaytirilganda undan ilgari hech kim bilmagan, miloddan avvalgi VII asrlarga oid qalinligi 3 metr atrofidagi qal'a devori topildi. Bu devor shaharning asosiy mudofaa devoridan ichkarida bo'lganligi sababli uni dastlabki ichki mudofaa devori, deb taxmin qilindi va mana shu topilma Qarshi shahrining 2700 yillik tarixiga ega ekanligini isbotlashda muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Qarshi shahrining yubileyi munosabati bilan Yerqo'rg'onni o'rganish uchun shahar hokimligi tomonidan mablag' ajratildi. Olib borilgan qazishmalar natijasida ilgari hech kimga ma'lum bo'lmagan va ahamoniylar davrida qurilgan deb taxmin qilingan mudofaa devori ostidan shaharning eng qadimgi va asosiy mudofaa devori topildi. Bu devor paxsasi lentasimon qilib 3 metr qalinlikda ko'tarilgan va keyinroq ichkari tomondan qo'shimcha loy bilan mustahkamlanib, qalinligi 7-8 metrga

yetkazilgan. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda yangi devor qurilganda eskisi unga poydevor vazifasini o'taydi, ya'ni yangi devor eski, ta'mirlangan devor ustidan ko'tariladi. Shunday qilib, Qarshi shahrining qadimgi va haqiqiy devori shu yili topildi.

Qarshi shahri haqidagi yana bir muhim ma'lumotimiz uning eng qadimgi nomi to'g'risida. Biz yuqorida keltirganimizdek, uning nomi ko'p o'zgargan. Bundan bir-ikki yil ilgari isroillik S.Shaket degan olim qadimgi oromiy yozuvlarida Nakshaniya degan nom borligini aniqlagan¹⁴. Agarda bu fikr ko'pchilik tomonidan tan olinib isbotlansa, unda Qarshining nomi eng qadimgi davrlardan boshlab Nakshaniya-Naxshab-Nasaf shaklida rivojlanib kelganligi ma'lum bo'ladi.

Qarshi tarixi haqidagi bilim va ma'lumotlar, tarixiy dalillar uzoq yillar mobaynida to'plangan. Ularning aksariyati qadimiy Sharq manbalariga, XIX-XX asr boshlaridagi sayyohlarning ma'lumotlariga asoslangan. XX asrning 40-yillari oxirlaridan boshlab Qarshi vohasida olib borilgan keng miqyosli arxeologik tadqiqotlar bu shaharning qadimiy va ilk o'rta asrlar tarixi, madaniyatini butunlay yangicha yoritish, uning shakllanish va rivojlanish tadrijini kuzatish imkonini berdi.

Dastlab so'g'd tamaddunining asosiy markazlaridan biri bo'lgan, so'ng o'rta asrlar sivilizasiyasi davrida o'z alloma va fiqh olimlari bilan shuhrat qozongan madaniy o'choqlardan biri bo'lmish Qarshi shahri ko'p asrlik taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

Qarshi — O'rta Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, hozirgi paytda Qashqadaryo viloyatining markazi hisoblanadi.

Bu ko'hna shahar o'zining uzoq tarixi davomida Naxshab — Ksenippa, Nikshapa, Nasaf, Qarshi degan nomlar bilan atalib kelgan.

Miloddan oldingi IV asr oxirida Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari, butun O'rta Osiyo singari, kadimiy Nikshapani ham bosib olgan va uni ikki daryo

¹⁴ Шакед С. Раннее упоминание о городе Нахшаб // «Роль города Карши в истории мировой цивилизации». Сбор. тез. докл. междунар. конф., посвящ. 2700-летию г. Карши. – Т.: 2006. – С. 34.

oralig'idagi Nautaka (Kesh), Pareytakena, Gabaza kabi janubiy hududlarga hujum qilish uchun tayanch manzillardan biriga aylantirgan.

O'sha davrga mansub oromiy hujjatlarida qayd etilishicha, keyinchalik Yerqo'rg'on nomini olgan Nikshapa xarobalari hozirgi Qarshi shahridan shimoli-g'arbda 2 chaqirim uzoqlikda joylashgan, butun vohaning ilk markazi hisoblangan.

Qadimiy Nikshapa miloddan avvalgi IX—VIII asrlarda paydo bo'lib, ko'p o'tmay katta shaharga aylangan. U Maroqand, Ko'ktepa (Baziliya), Uzunqir (Kesh-Nautaka) shaharlari kabi miloddan oldingi IX—VII asrlarda hukmronlik qilgan ahmoniyalar sulolasidan avvalgi davrlardayoq so'g'd sivilizasiyasining to'rtta asosiy markazlardan biri bo'lgan.

Bu markazlar, ehtimol, o'ziga xos shahar—davlatlar So'g'diyona ahmoniyalar davridan avval ham muayyan davlat birlashmasi sifatida mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Markazlarining joylashuviga ko'ra, u uchta asosiy hududdan iborat bo'lgan, ya'ni bosh markaz — Maroqandni o'z ichiga olgan So'g'd, Nikshapa — Yerqo'rg'on hamda Nautakaning asosiy markazi Kesh — Uzunqir shahri bo'lgan.

Miloddan avvalgi III asr Nikshapa qudratli fortifikasiya, muhtasham inshootlar, yuksak rivojlangan hunarmandchilik va so'g'dcha xususiyatlar bilan aralashgan o'ziga xos ellinistik madaniyatga ega bo'lgan. Arxeologik topilmalar shu davrda Janubiy So'g'd, jumladan Nikshapa ham, qadimiy madaniyatniig asosiy o'chog'i bo'lganidan dalolat beradi. Nikshapaning rivojlanishi va savdo-iqtisodiy ahamiyati uning muhim savdo yo'llarida joylashgani bilan belgilangan. Bu yo'llar Amudaryo sohillari bo'ylab Baqtriya, Marg'iyona va Parfiyaga olib borgan.

Nikshapada juda erta, taxminan, miloddan avvalgi IV asrning oxirida tovar-pul munosabatlari paydo bo'ladi va keyinchalik ko'p asrlar davomida izchil rivojlanadi.

Nikshapa-Yerqo'rg'on bilan bir vaqtda, ehtimol, miloddan oldingi II asrda boshqa bir yirik shahar — hozirgi Qarshi markazida joylashgan vohaning harbiy va ma'muriy markazi Qal'ai Zakhoki Moron yuzaga keladi va rivojlanadi.

Bunday ikkita harbiy-ma'muriy va savdo-hunarmandchilik markazlarining mavjudligi Sharqqa xos bo'lgan hodisa, albatta. Lekin ushbu holatning bunday yaqqol shaklda namoyon bo'lishi O'rta Osiyoda faqat Qarshi vohasida uchraydi.

Ilk o'rta asrlarda Yerqo'rg'on shahristonidagi poytaxt — Nikshapanning tashlandiq holga kelib qolishi tufayli vohaning markazi yangi joyga, deyarli hozirgi shahar yonida joylashgan Shulluktepa shahristoniga ko'chadi. 701—702 yillarda ushbu shahar arab manbalarida Nasaf deb ataladi va bu nom XIV asrning boshlarigacha saqlanib qoladi. Shu davrda, Movarounnahrning boshqa shaharlari kabi, Nasaf ham islomga o'tish jarayonini boshdan kechiradi.

IX—XIII asrlarda Nasaf o'rta asrning yirik shahriga — Movarounnahr madaniyatining asosiy o'choqlaridan biriga aylanadi. Buni mazkur shaharda yashagan va Nasafiy nisbasi bilan dunyoga tanilgan ko'plab olimlar, din arboblarning shuhrati ham tasdiqlaydi. Ular qatorida X asr oxiri va XI asr boshida yashagan yirik alloma va mutafakkir, ikki jildlik «Nasaf va Kesh tarixi» kitobi, «Samarqand tarixi» asari muallifi Abdul Abbos Mustag'firi, «Nasaf va Keshning taniqli odamlari haqidagi kitob» muallifi, X asrning yirik olimi Abdul Xaras al-Varsiniy an-Nasafiy, XI-XII asrlarda ijod qilgan va diniy-aqidaviy masalalar bo'yicha ko'plab kitoblar yozgan olim - Abu Hofiz an-Nasafiy, taniqli tarixchi va dinshunos Abdul Barakat an-Nasafiy, mashhur «To'tinoma» adabiy asari muallifi Ziyouddin Naxshabiy kabi allomalarning nomlarini ta'kidlash zarur. Bir so'z bilan aytganda, o'rta asrlarda Nasafda Sharq musulmonlarining ma'naviy tarixida muhim o'rin egallagan olimlar, dinshunos va adabiyotshunoslar sulolasi shakllangan.

Qarshi XIV asrda hozirgi o'rnida barpo etilganidan so'ng u tezda rivojlanib, mustahkam qal'aga aylangan. Ayniqsa, shahar tarixida Amir Temur faoliyati katta ahamiyat kasb etgan. Buyuk Sohibqiron shaharni obod qilib, mustahkamlab, bu erda katta jome masjidi, madrasa va boshqa binolar qurdirgan.

Keyingi yuz yilliklarda Qarshi hukmdor o'zbek sulolalarining muhim markazi bo'lgan. Buxoro amirlari boshqaruvi davrida aksariyat hollarda Qarshi viloyatiga mamlakatning kelgusi hukmdori hokim qilib tayinlangan.

XX asrga kelib, Qarshi sanoati rivojlangan katta viloyat markaziga aylanadi. O'tgan asrning 80-yillari oxirida viloyat rahbari lavozimida bo'lg'usi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov samarali faoliyat yuritdi. U viloyatning qishloq xo'jaligi va sanoatini mustahkamlash va rivojlantirish, madaniy va ma'naviy hayotini yuksaltirishga ulkan hissa qo'shdi.

Mustaqillik yillarida Qarshi yirik zamonaviy shaharga aylandi.

Miloddan avvalgi II mingyillik oxiri va I mingyillik boshlari O'rta Osiyoda qabila va xalqlarning keng ko'lamli ko'chishi, ilk temir davrining boshlanish davri bo'lgani bilan e'tiborlidir.

Bu davrda O'rta Osiyoning asosiy tarixiy-madaniy hududlari - Baqtriya, Marg'inona, So'g'd, Xorazm shakllangan. Bu davrda ushbu mintaqada dastlabki shaharlar - dehqonchilik vohalarining markazlari paydo bo'ladi, ilk davlatlar tashkil topadi. Shu davrdan boshlab O'rta Osiyoda shahar madaniyati uzluksiz, jadal sur'atlar bilan rivojlanib boradi.

Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida qadimgi so'g'd elati va o'troq dehqonchilik madaniyati shakllanadi. Qashqadaryoda miloddan avvalgi birinchi asrning boshidan ikkita asosiy voha - Qarshi va Shahrisabz vohalari shakllanadi. Aleksandr Makedonskiy bilan birga yurtimizga kelgan yunon tarixchilari milodning IV asri oxirida Qashqadaryo vodiysidagi ikkita tarixiy-madaniy viloyat - Nautaka va Nikshapani eslab o'tishadi.

Qarshi vohasining qadimiy poytaxti - Yerqo'rg'on shahristoni hozirgi Qarshi shahri Shayxali mahallasidan 2 kilometr shimolda joylashgan tuproqqal'a bo'lgan. Yerqo'rg'on 50-60-yillarda dastavval S.Kabanov va M.Masson tomonidan o'rganilgan. XX asrning 70-80-yillarida esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining ekspeditsiyasi tomonidan bu yerda ilmiy arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Yerqo'rg'on hududi turli hajmdagi tepaliklar bilan qoplangan bo'lib, ular sobiq shahar vayronalaridir. Eng yirik tepalik hukmdor saroyi ekani aniqlangan. Shuningdek, qazuv ishlari davomida shahar butxonasi, maqbara, zardushtiylik dahmasi, hunarmandlar mahallalari topilgan. Yerqo'rg'ondagi shahar taxminan VI asrning ikkinchi yarmida Turk hoqonligi va

Sosoniylarning birlashgan ko'chlari tomonidan eftalitlar davlatini yakson qilish paytida vayron qilingan.

Miloddan avvalgi birinchi mingyillikning o'rtalarida shahar kengayib boradi. U 35 gektarlik maydonni egallaydi. Taxminan miloddan avvalgi VI asrda kurilgan yangi mudofaa devorining balandligi 8 metr, poydevori 3 metr kenglikda bo'lgan. U shaharni sak chavandozlaridan himoya qilgan. Vaqt o'tishi bilan u bir necha marta ta'mirlangan va kengaytirilgan, IV asrning o'rtalariga kelib, uning qalinligi 20 metrga yetgan.

Miloddan avvalgi III-II asrlarda Yerqo'rg'on o'rnidagi shahar rivojlanib borgan, buni arxeologik topilmalar tasdiqlaydi. Jumladan, sopol buyumlarning shakli o'zgara boshlagan. Bular nafis jomlar, ovqat solinadigan idishlar, laganlardir, ayni paytda bu davrda vohada koroplastika san'ati vujudga kela boshlaydi. Bu davrdagi noyob terrakota rasmlar va bezaklar ellincha usulda yasalgan. Qazilmalar mobaynida topilgan momaqaldiraq xudosi Zevs tasviri tushirilgan miloddan avvalgi V-IV asrlarga mansub etruskcha gemma-intaliya ham shu davrga oiddir. Soqolli yalang'och mavjudot yarim burilgan holda chap qo'lida Zevsning hamrohi - burgut qo'ngan asoni ushlab turgan tarzda tasvirlangan.

Miloddan avvalgi II asrning birinchi yarmida Qarshi vohasi Sharqiy Orolbo'yi hududidan chiqqan saklar sulolasi hukmronligi ostida qolgan. O'sha davrda Yerqo'rg'on dan 15 kilometr janubda qal'a shaklidagi yangi shahar - Qal'ai Zakhoki Moron barpo etilgan. U yagona arxitektura inshooti sifatida qurilgan. Uning markazida tomonlari yuzga yuz metr bo'lgan, 15 metrgacha balandlikdagi ulkan minora joylashgan. Ushbu inshootni uch qator devor qurshab olgan.

Qal'ai Zakhoki Moron va uning o'n metr qalinlikdagi devorlari Yerqo'rg'on kabi bir necha marotaba qayta qurilgan. Devor tarkibini o'rganish ularning eng dastlabkilari miloddan avvalgi II—I asrlarga mansubligini ko'rsatdi. Milodning IV-V asrlarida shahristonni qayta tiklash paytida devor ichidagi yo'laklar barpo etilgan. Milodning VIII asriga kelib shaharning asosiy qismida hech kim yashamay qo'ygan, markaziy minoraning tepasida kichik qo'rg'on bunyod etilgan.

Miloddan avvalgi dastlabki asrlarda Yerqo'rg'on o'rnidagi shahar kengaytirilgan hamda deyarli 150 gektarlik maydonni qamrab oluvchi tashqi devor bilan o'ralgan.

Yerqo'rg'onning tashqi devori ichki yo'lkalari bor mustahkam mudofaa inshooti bo'lib, uning hududida har 60 metrdan so'ng minoralar o'rnatilgan.

Miloddan avvalgi II—I asrlarda Yerqo'rg'onning ichki shahrida VIII-VII asrlarga mansub eng qadimgi devor xarobalari o'rnida kulollar mavzesi barpo etilgan, tashqi shaharda esa - Samarqand tomonga olib boruvchi qadimgi yo'l yoqasida - temirchilar mavzesi bo'lib, ular shahar VI asrda vayron bo'lguncha mavjud bo'lgan.

Yerqo'rg'onning bu davrga oid sopol idishlari ko'pincha qo'ng'iroqsimon oyoqli nafis jomlar sifatida ishlangan. Idishlar bilan bir qatorda kulolchilik ustaxonalarida turli ma'budalar, harbiylar, otliqlar, shuningdek, ot, qo'y, echki, kamdan-kam holatda esa yovvoyi yirtqich hayvonlar haykalchalari yasalgan.

Qazilgan madaniy qatlamlarni o'rganish davomida shu narsa ayon bo'ldiki, Yerqo'rg'onda faol bunyodkorlik ishlari milodning III asrigacha davom etgan.

Yerqo'rg'on-Naxshabning yangi rivojlanish davri milodning III-IV asriga to'g'ri keladi. Bu davrda yirik bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan, shahar ibodatxonasining muhtasham binosi, hukmdor saroyi, maqbara binolari barpo etilgan, tashqi va ichki mudofaa devorlari tubdan ta'mirlangan, kulollar va temirchilar mavzelari kengaytirilgan.

Xioniylar va eftalitlar davri - IV-VI asrlarda Yerqo'rg'on Markaziy Osiyoning eng yirik va gullab-yashnagan shaharlaridan biri bo'lgan. Poytaxt shahar atrofida keng ko'lamli qurilmalar aglomerasiyasi qaror topgan. Shahar infratuzilmasi alohida tarmoqlarga birlashgan murakkab tusga ega bo'lgan. Ko'chalar ibodatxonaga, saroy va maqbaraga olib borgan.

III-IV asrlarda Yerqo'rg'on ikki qavat baland devor bilan o'ralgan bo'lib, diniy marosimlar o'tadigan monumental binolarni o'z ichiga olgan. Ular shahar jamoatchiligi hayotida hududiy belgilar sifatida xizmat qilgan, vazifasiga ko'ra ma'muriy, diniy marosimlar o'tadigan joy va mudofaa markazi rolini o'tagan.

Yerqo'rg'onning kulollar va temirchilar mavzalarining so'nggi ustki qatlamiga ko'ra, milodning V asrida shaharda yong'in va halokat sodir bo'lgan, keyinchalik hayot yana o'z iziga tushgan. Milodning VI asrida shahar butkul vayron bo'lgan, bu hol Turk hoqonligi va Eron Sosoniylarining birlashgan harbiy koalitsiyasi hujumi ostida Eftalitlar davlatining emirilishi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Shundan so'ng milodning VI asri oxiri va VII asrning boshida shahriston ustida, bir paytlar yirik kulollar mavzesi bo'lgan joyda kichik kulollar qo'rg'oni tiklangan. Shaharning huvillagan ibodatxonasidagi bir paytlar ilohiy ma'buda o'rnatilgan joyda to'g'ri burchakli otashkada o'rnatilgan. Ibodatxonaning ushbu so'nggi davri VII asrning o'rtalariga mansub Kesh tangasida ham o'z aksini topgan.

3.2. V-XIII asrlarda Qashqadaryo vohasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot

III-IV asrlarda - sulolalar o'zgarishi va urug'lar ko'chishi davrida tub etnomadaniy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Bu davrdagi Marv va Naxshabning madaniy aloqalariga oid ishonchli arxeologik yodgorliklar Yerqo'rg'on shahar ibodatxonasi ustki qismini qazish paytida topildi.

Ibodatxona binosi III-IV asrlardan VII asrgacha ishlab turgan va bu davrlarda bir necha bor qayta qurilgan. Taxminan beshta yirik qayta qurish amalga oshirilgan, biroq ibodatxonaning umumiy tarxi, bir o'q bo'ylab joylashgan ayvon va hovli doimo saqlanib kelgan. Devor va tokchalarda yorqin rangli chizilgan naqshlar, afsuski, bizgacha etib kelmagan.

Sharqiy ibodatxonaning bir paytlar boy bo'lgan monumental bezaklaridan faqat ayrim lavhalar saqlanib qolgan. Ikkinchi davrga oid tokchalar bezaklari yaxshiroq saqlangan. Ibodatxonaning markazga qaragan qismida ikki odam shakli bor (qizil fon ustiga oq rang bilan chizilgan), bular uzun kiyim kiygan kohinlarning adorasiya holatidagi tasviri bo'lsa kerak. Ulardan biri qo'lida kalavali urchuqni ushlab turibdi, ikkinchisining qo'lida uzuk hamda gullar bor.

Ibodatxonaga qo'yilgan ilohning tasviri alohida o'rin tutadi. Umumiy hisobda bu yerda to'rtta haykal bo'lgan bo'lishi kerak, chunki tomonlarning har bir qayta qurilishida tasvir buzilgan, uning parchalari devorlar va pollarga ko'mib

yuborilgan, o'rniga esa yangi haykal qo'yilgan. Faqat so'nggi davrdagina eski haykal o'rniga xom g'ishtdan yasalgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi mehrob o'rnatilgan bo'lib, uning usti oq rangli ganchsuvoq bilan qoplangan. Ushbu mehrob tozalanganida, uning ustki maydonchasi toza kul bilan qoplangani ma'lum bo'ldi. Mehrob ostidan cho'p karkasga loy suvalib yasalgan va bo'yalgan haykal qoldiqlari topilgan.

Ushbu parchalarga ko'ra, bu haykal tor uzun ko'ylakdagi ma'buda bo'lgan. Haykalning faqat orqa tomoni saqlangan.

Ilohning boshini anglatuvchi eng yirik parcha ibodatxonaga kirish joyida pol ostidan topildi. Uning yuzi yorqin bo'yoqlar bilan bezalgan: peshona, yuz va iyakda oq va qizil doirachalardan iborat bezaklar mavjud. Bunday ramzlar Kushonlar davridan boshlab hind ilohlarining yuzini bezagan. Ayni paytda shunga o'xshash naqshlar Yerqo'rg'on ma'budasidan 2000 yil avval yasalgan krit-miken madaniyati ayol ma'budalari yuzlarida, shuningdek, etrusk madaniyati ayollari obrazlarida uchraydi. Bularning barchasi turli madaniyatlarning qadimgi aloqalari xususida keng xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Haykallar va yarimsirli devoriy naqshlarning saqlanib qolgan nodir namunalari ellincha ta'sirga moyillik hamda Xorazm va Baqtriya madaniyati bilan o'zaro aloqalardan dalolat beradi.

Sharqiy ibodatxona qazilmalari paytida topilgan ashyolar orasida ibodat bilan bog'liq san'at buyumlari alohida o'rin tutadi. Uning markaziy o'yig'ida III-IV asrlarga oid buyumlarning kichik xazinasini topilgan, ular feruza tosh bilan bezalgan, orqasiga yaltiroq chig'anoq o'rnatilgan tipratikan shaklidagi tilla taqinchoq, Dionisiyga oid iloh - Silenning qorni shishgan, echkiquloq shaklda tasvirlangan miniatyura haykalchalari, aqiqdan yo'nilgan qurbaqalardan iborat. Yana boshqa joydan, pol tagidan tilla yaproqchalar shaklidagi taqinchoq bronza oynalar, ochiq rangli qorishmadan yasalgan ilon haykalchasi topilgan.

Ikkinchi, markaziy yoki g'arbiy deb atalmish ibodatxona binosi birlamchi tarzda o'rganib chiqilgan, uning funksional ahamiyati hali ma'lum emas. U ham bir necha bor qayta qurilgan. Biroq inshootning shimoli-sharqiy burchagidagi to'g'ri

to'rtburchak shakldagi mehrobli xonasi, uning vertikal shakldagi old qismi, ko'rinishi va hajmi, Oks va Surx-Kotalaning shunga o'xshash binolari bilan qiyoslanganda, bu tepalik olov saqlanadigan joy rolini o'tagan, deb taxmin qilishga asos beradi.

Yerqo'rg'on saroyining o'ziga xosligiga to'xtalar ekanmiz, shuni qayd etish kerakki, shahar va saroy ibodat majmualarining detallari jiddiy farqlangan. Saroy ibodatxonasi sellasi markazida olov yonib turgan va bu joy yo'laklar tizimi yordamida kunduzgi yorug'dan va atmosfera o'zgarishlaridan to'liq himoyalangan.

Saroy ibodatxonasi abadiy olovni saqlashga mo'ljallangan. Olov ilohga atab yoki III-IV asrlarda Naxshabning ilohlashtirilgan hukmdorlari sharafiga yoqilgan bo'lishi mumkin.

Yerqo'rg'onning yana bir noyob inshooti - hukmdorlar maqbarasidir, u III-IV asrlarga mansub. Me'moriy-tipologik jihatdan u o'ziga xos ko'rinishga ega: shahar tomonga ochilgan to'rtburchak markaziy zal yoki ayvon bo'lib, uch tomondan yo'laksimon tor xonalari bor. Bular baland zinapoyali piramidasimon asosga o'rnatilgan, yuqoriga pishiq g'ishtdan qurilgan, ganch bilan suvalgan zina orqali chiqilgan.

III-VII asrlarda Naxshab koroplastika san'ati rivoj topadi. Mahalliy terrakota, O'rta Osiyo koroplastika san'atining umumiy yo'nalishida rivoj topgan holda, kiyimlar, holat va bezaklar tasvirida qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Naxshab haykalchalari o'zining tik qomati bilan ajralib turadi. Samarqand va Baqtriya terrakotalarida osiyocha bichimdagi, qimmatbaho taqinchoqlarni ifodalovchi turli shakllar bilan bezalgan qalin kiyimlarni ko'ramiz, ularning prototiplari Tillatepa va Shibirg'on yaqinidagi maqbaralarda uchraydi. Naxshabga Mesopotamiya maktabi usulidagi yalang'och haykalchalar xos emas, ayni paytda musiqachi qizlar yalang'och holda tasvirlangan. Ayol obrazlarning qo'llarida ham buyumlar kam uchraydi. III-VII asrlarga xos eng ta'sirchan haykalchalarda gandxara maktabi ta'siri kuzatiladi.

Keyinchalik haykalchalar ko'proq shartli tusga ega bo'la boshlaydi, detallar umumlashtiriladi. Tashqi harakat shaklini ifodalashda haykalchalar ichki dunyosiga e'tiborning kuchayishi kuzatiladi.

Qo'lida oyna tutgan ma'budalar haykalchalarining variantlari bir-biridan farqlanadi. Yerqo'rg'onda shahar ma'budasi ibodatxonasidan topilgan bir necha oyna uning Naxshab shahri va viloyati ma'budasining ramzi ekaniga ishora qiladi. Haykalchalar ham xuddi shu ma'noni anglatishi mumkin. Oyna tutgan ma'budaning eng qadim namunalari Xorazmda uchraydi. Bunday turdagi haykalchalar Baqtriyada ham uchraydi, biroq Marvda u keng tarqalgan bo'lib, bunda ma'buda oyoqlari ostida ilon yoki ajdaholar bilan birga tasvirlangan.

Naxshabga xos bo'lgan qo'lida bola ko'targan ona - iloh tasvirlangan haykalchalar ham e'tiborga sazovordir. Ular Yaqin Sharqdagi bolasini emizayotgan ma'buda yoki ellincha Afrodita, oyog'i yonida Garpokratning miniatyura figurasi bo'lgan haykalchalar bilan umumiylikka ega emas.

Uslubiy jihatdan ellinlashgan va sharqona turdagi haykalchalar oralig'ida turadigan kichik turkum haykalchalar ham mavjud bo'lib, ular yarim yalang'och shaklda, ko'kragiga xochsimon tarzda mato bog'langan holda tasvirlangan. Bunday haykalchalar va ularning holati hindcha yakshinlar tasvirini eslatadi.

Sof osiyocha kiyimdagi haykalchalar nisbatan kam. Ular Naxshabga xos o'lchamlarni va holatlarni saqlab qolgan bo'lsada, tasvir jihatidan shartliligi bilan ajralib turadi.

Yerqo'rg'on kulollar mavzeida topilgan va III asrga oid deb hisoblanuvchi noyob buyumlardan biri - bulla (hukmdor muhri izi). Muhrda hukmdorning o'zi ajdahoning ustida o'tirgan holda tasvirlangan, uning qo'lida qadimiy hukmdorlik ramzi bo'lmish qamchi bor, ayni paytda bu hukmdorlik ilohiy tusga ega (qamchi hozirgacha ham Markaziy Osiyo shamanlarining asosiy quroli hisoblanadi). Hukmdor chavandoz oldida burmali ko'ylak kiygan ma'buda turibdi. Bir qo'li bilan chavandozga jom uzatmoqda, ikkinchi qo'li bilan esa ajdaho bo'ynidagi yuganni ushlab turibdi. Hukmdor elkasi ortida - Sharqda Yangi yil, bahorgi tengkunlik (Navro'z) ramzi hisoblangan yarim oy va yulduzlar tasviri bor. Qadimda va o'rta

asrlarda hukmronlik ilohiy kuchlar tomonidan, xudolar tomonidan ato etiladi, deb hisoblangan. Arxaik jamoalarda, hukmdorning o'zi bosh kohin va iloh xizmatchisi vazifalarini ijro etgan, shahar, mamlakat yoki urug' ilohi ayol ma'buda bo'lgan taqdirda, hukmdor ilohaning afsonaviy eri rolini ijro etgan va muqaddas nikoh orqali ilohiy mavjudotlar qatoriga kiritilgan.

Hukmdor shahar va mamlakat ilohi hisoblangan ma'budaning muqaddas jonzoti - ajdahoning ustida o'tirishidan shunday xulosaga kelish mumkinki, bunda biz muqaddas nikoh orqali ilohlarga yaqinlashish sahnasini ko'ramiz. Chavandozning qo'lidagi qamchi uning ayni paytda ma'budaning kohini ekanligini ham ko'rsatadi.

Ma'budaning qo'lidan jomni qabul qilib olish sahnasi qadimgi sharq va skiflar san'ati bilan bog'liq bo'lib, qasam ichish orqali ilohlarga yaqinlashishni bildiradi. Qadimda sud paytida, xudolar oldida qasamyod qilish chog'ida muqaddas ichimlikni ichish keng tarqalgan. Bu qadim odatning qoldiqlari o'zbekcha «qasam ichmoq», «qasamxo'r» degan iboralarda kuzatiladi.

Bu yerdan topilgan ko'plab sopol urchuq toshlar antik va ilk o'rta asrlarda to'qimachilik rivojlanganidan dalolat beradi. Ular ham amaliy, ham ilohiy ma'noga ega bo'lgan. Bunday toshlarning marhumlar yoniga qo'yilishi ham shuni tasdiqlaydi (qo'rg'on hukmdorlari maqbarasida ikki yuzdan ziyod ana shunday idishlar topilgan). Ehtimol, to'qimachilik qabr hayotida va qayta tirilgandan so'ng asqatadigan muqaddas kasb, deb hisoblangan bo'lsa kerak. Prozerpina haqidagi antik afsonani eslaylik - u er osti saltanatida tikish bilan shug'ullanadi va shu orqali azaldan tarqoq bo'lgan moddiy dunyoga uyg'unlik va farovonlik ato etadi. To'qimachilik buyumlarining dafn marosimlarida qo'llanishi - ildizlari umumxindevropa madaniyatiga borib taqaladigan Sharq va Fapb afsonalaridagi yana bir o'xshashlikdan dalolat beradi.

V-VIII asrlarda So'g'd madaniy va badiiy jarayonlarning markazlaridan biriga aylanadi va ularda butun o'rta asrlar madaniyatiga xos bo'lgan rivojlanish xususiyatlari o'z ifodasini topadi. Uning hududi yangi davlat birlashmasi - Buyuk Turk hoqonligi tarkibiga kiradi: shaharlarning yiriklashuv jarayoni sodir bo'ladi,

shahar madaniyatiga ko'chmanchi qabilalar madaniyatining kirib borishi davom etadi. Jamiyatda savdo muhim o'rin tuta boshlaydi, bu hol Buyuk ipak yo'lining jonlanishi bilan bog'liq edi. Savdo ekspansiyasi tufayli So'g'dning ta'siri uning hududidan olislarda ham kuzatila boshlaydi. Jahon savdosidan olingan daromadlar shaharlarning tezkor sur'atlarda o'sishiga ta'sir ko'rsatdi hamda so'g'd madaniyati taraqqiyotiga olib keldi.

Qarshi vohasida joylashgan arxeologik yodgorliklarda olib borilgan qazishmalar bu davrdagi hunarmandchilikning rivojlanganidan dalolat beradi. Bu yerda V-VIII asrlardagi turar-joy qurilishlari namunalari ham bor.

Naxshab hududida V-VII asrlarda mavjud bo'lgan qishloqlarda olib borilgan arxeologik qazilmalari (Kunjutlitepa, Qo'shtepa kabi) shuni ko'rsatadiki, shahar aholisi va qishloq ahlining uy xo'jaligi tuzilishida jiddiy farqlar bo'lmagan.

Bu davrda yangi - kandiza turidagi og'ir, uzun va qalin libosli ayollar haykalchalari paydo bo'ladi.

Erkaklar haykalchalari antik davrda nihoyatda kam uchraydi va bular ko'pincha silenlarning alohida boshlari, shuningdek, sak-parfiyaliklar haykalchalaridan iborat. V-VI asrlarda ularning holati, kiyimi va personajlar atributlarida ham to'liq o'zgarishlar kuzatiladi, bu hol ijtimoiy asosi tabaqali-ierarxiyaga borib taqaladigan ilk feodal san'atining boshlanishidan dalolat beradi. Bunday haykalchalarning ikonografik turi qoyadagi Naqshi Rostam barelifidagi Varaxran Ikkinchi obrazidan kelib chiqqan. Personaj diniy shaxs va hukmdor rolini birlashtirishi ko'rinib turibdi, bu hol diniy va dunyoviy hokimiyatning yagonaligi g'oyasini ifodalaydi va ushbu g'oya mashhur qisqa bir iborada bayon etilgan: «Mehrob - taxt tayanchi, taxt - mehrob tayanchi».

Yerqo'rg'on terrakotalari obrazlarini ko'psonli chavandozli va chavandozsiz otlar haykalchalari to'ldiradi. Qadim Naxshabning boshqa obrazlari buqalar, echkilar, tuyalar, maymunlar, qushlar shaklida ifodalangan: bir-ikkita mushuksimon hayvonlar, bo'ri yoki itning tumshug'i uchraydi, burgutning boshi va keramik ritonni yakunlovchi murakkab yasalgan ajdahoning boshi nihoyatda

ta'sirchan ifodalangan. Terrakotalarning ushbu guruhida dasht san'ati an'analari o'z aksini topgan.

Yerqo'rg'on kulollarining mahsulotlari - sopol idishlar majmuasi antik davrdan ilk o'rta asrlarga o'tish davriga xos bo'lib, shuningdek, ular orasida o'rta asrlarga oid yangi shakllar ham uchraydi. So'nggi antik davr keramikasiga yupqa devorli idishlar - qo'ng'iroqsimon qadahlar, jomlar, kozalar, kraterlar va boshqa buyumlar xos. Keyinchalik qo'ng'iroqsimon shakl yo'qoladi, ilk o'rta asrlar idishlari ko'rinishini mo'jazgina tutqichi bor ixcham ko'zachalar va naqsh solingan yupqa devorli jomlar belgilaydi. Ko'plab idishlar orasida qator zardushtiylik yodgorliklari bilan bog'liq tutatqidonlar, diniy ahamiyatga ega yoritqichlar ajralib turadi.

Xullas, Qashqadaryo vohasining qadimgi va ilk o'rta asrlarga mansub san'ati ushbu hududning O'rta Osiyo mintaqasidagi tarixiy va badiiy jarayonlarga uyg'un holda kechgan qizg'in hayotidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq xalqlarining yozuv madaniyati tarixida Buyuk ipak yo'lining ta'siri katta. Buni miloddan avvalgi va ilk o'rta asrlarda amal qilgan yozuvlar, ayniqsa, oromiy yozuv tarmog'ining tarixiy takomilida, bu tizimga kiruvchi yozuvlarning yuzaga kelishida yorqin kuzatishimiz mumkin. Oromiy tizimidagi yozuvlarning tarixiy takomili, bu tarmoqning Markaziy Osiyo bo'ylab yoyiluvini ham bevosita ipak yo'li va uning ta'siri asosida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy jarayonlar bilan bog'liqdir. Markaziy Osiyo xalqlari orasida kechgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy munosabatlar, savdo aloqalari tufayli oromiy yozuvi keng quloch yoydi. Miloddan avvalgi yuzyilliklardayoq yerli xalqlar oromiy alifbosi negizida o'z tillarining fonetik qolipiga tushadigan yangi-yangi yozuvlarni yarata boshladilar. Avesta, qadimgi xorazmiy, so'g'd, moniy yozuvlari oromiy alifbosi negizida yuzaga kelgan ana shunday milliy yozuvlardan edi.

Ilk o'rta asrlarda Buyuk ipak yo'lining Kaspiy yoqalaridan boshlab Uzoq Sharqqacha bo'lgan chizig'ida xalqaro muloqot tili sifatida ikki til yetakchilik qilar edi: bularning biri so'g'dcha, ikkinchisi esa eski turkiy tildir. Buning o'ziga yarasha tarixiy, ijtimoiy-siyosiy sabablari mavjud. Bu, birinchi galda, ana shu

mintaqadagi til vaziyati, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog'liq. Ma'lumki, buddizmning Markaziy Osiyo xalqlari orasida yoyilishi va turg'un bir dinga aylanishida so'g'dlarning xizmati katta bo'lgan. Manbalarning guvohlik berishicha, ilk o'rta asrlarda so'g'd tili va yozuvining qo'llanishi doirasi So'g'd davlatidan chiqib Marv, shimoliy Buxtoir va ulkan turk o'lkalari - Choch vohasi, Fargona, Yettisuv, hozirgi Sinjon yerlari va Markaziy Mo'g'ulistonga qadar yoyilgan edi. Bu, avvalo, O'rta va Markaziy Osiyodan o'tgan savdo karvon yo'llari, xususan, ipak yo'ulida turklar bilan so'g'dlarning birgalikda olib borgan ishlari, shuningdek, uch diniy oqim - buddizm, moniylik va nasroniylikni yerli xalqlar, jumladan, turklar orasida yoyish yo'lida olib borgan urinishlari bilan bogliq. Dinni tashviq qiluvchilarning katta bir guruhi so'g'd jamoalaridan chiqqan. Yirik karvon yo'llarida qatnaydigan savdogarlarning ko'pi so'g'dlardan edi. Savdo yo'llarining har joy - har joyida savdo - sotiq ishlari va boshqa yumushlar bilan borib o'sha yerlarda qolib ketgan kishilardan tuzilgan so'g'd jamoalari yashagan.

Buyuk ipak yo'li yoqalaridan, savdo karvonlari qo'nib o'tadigan qishloqlardan ko'plab so'g'dcha yozma yodgorliklar ham topilgan. So'g'dcha yozma yodgorliklarning asl egalari so'g'dlarning o'zi - savdogarlar, ziyoratchilar, sayyohlar yoki biron sabab ila o'sha yurtlarga borib qolgan kishilardir. Biroq, yodgorliklar orasida turk muhitida, turk jamoalari tomonidan yaratilganlari ham bor¹.

Yana bir jihati, ayrim yurtlarda turk - so'g'd ikki tilliligi ham amal qilgan. XI asrda yashab o'tgan tilshunos Mahmud Qoshg'ariyning yozishicha, Bolasag'un, Tiraz, Madinat ul-bayza shaharlarining xalqlari so'g'dcha va turkcha gaplashganlar. Ushbu fakt ikki masalaga e'tibor qaratishni taqozo etadi: birinchidan, bu o'rinda shu o'lkalarda ikki tilda so'zlashuvchi ikki xalq yashaganligi ko'zda tutilmoqda; ikkinchidan esa, bu o'lka xalqlarining ikki tilliligi. Ma'lumki, ko'k turk, uyg'ur xoqonliklari va qoraxoniylar zamonida bu o'lkalarda turklar bilan birga boshqa yurtdan kelib o'rnamshib qolgan so'g'dlar ham yashar edi.

¹ Turkshunoslik tadqiqotlari. – T., 2009. B. 8-9.

Mahmud Qoshg'ariy so'g'dak (ya'ni so'g'd) xalqini ikki tilda so'zlashuvchilar deb ta'kidlaganda, ko'proq shu o'lkalardagi so'g'dlarni ko'zda to'tgan ko'rinadi.

Ko'k turk, uyg'ur xoqonliklari va qoraxoniylar davrida Bolasog'un aholisi ikki tilli edi. Mahmud Qoshg'ariyning yozishicha, bolasog'unliklar so'g'dcha va turkcha so'zlashganlar. Chamasi, qoraxoniylar zamoniga kelib, bu yerlik so'g'dlarning turklashuv jarayoni yuz bera boshlagan. Mahmud Qoshg'ariy sog'daq (ya'ni "so'g'd") so'ziga izoh bera turib: "Sogdaq – Bolasog'unga joylashgan bir qavm. Ular Samarqand va Buxoro o'rtasidagi So'g'ddan bo'lib, keyin turklashib ketgan odamlar" deb yozgan edi.

Buning singari omillar ham, kezi kelganda, so'g'd tili mavqeining oshishiga turtki berib turardi. Shuning singari hodisalar sabab bo'lib, so'g'd tili Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyoni kesib o'tgan chizig'ida o'zaro aloqa tillaridan biriga aylanib qoldi.

Turkiy tilning savdo yo'llarida millatlararo aloqa tiliga aylanishining esa boshqa bir sababi bor. Ma'lumki, eski turklar bu keng tuproqlarda yoyilib yashagan, bu yerlarning katta bir qismi turklarning qo'l ostida bo'lgan. Turk xoqonliklari va davlatlarida rasmiy til turkiy til edi. Xoqonlarning yorliqlari, davlat tuzuklari, yilnoma va tarixiy bitiglar, ilmiy va badiiy adabiyot turkiyda yaratilgan. Xatto diniy-falsafiy asarlarning ham turkiyga o'girilganligi ayni mintaqadagi til vaziyati bilan o'lchanadi. Bu yerlardan o'tgan karvon yo'llariyu sayyohlar deysizmi, turklar bilan bordi-keldisi bor qo'shni yurtlar deysizmi, turk davlatlari bilan murosa qilishga, mintaqadagi til vaziyati bilan kelishishga majbur edilar. Qolaversa, turk xoqonlarining qo'shni davlatlar bilan yozishmalari turkiy tilda kechgan. Mahmud Qoshg'ariyning yozishicha, mochinliklar va chinliklarning ayriча tillari bor bo'lsa ham, shaharliklar turkchani yaxshi biladilar. Olimning yana ta'kidlashicha, ularning turklar bilan yozishmalari turkchadir. Bu omillar, o'z navbatida, karvon yo'llarida eski turkiy tilning muloqat tili sifatida ishlatilishini ta'minlab berdi¹.

¹ Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. – T., 1960. 66-68.

Oromiy yozuvining eng qadimiy yodgorligi, Katta Oybuir qal'asi (Shimoliy Xorazm) shaharchasida olib borilgan qazilma chog'ida topilgan, xumdagi qisqacha yozuv hisoblanadi. Yozuv miloddan avvalgi IV asr bilan sanalangan, undagi yozuv hali oromiy bo'lsada, lekin qadimiy Xorazmniki emas. Shunday bo'lsada, milodning birinchi asrlariga kelib - tangalar, kulolchilik buyumlaridagi parchalarda mana shu tilda bitilgan ko'plab yozuvlarni uchratish mumkin. Ayniqsa qadim xorazmiylar arxivining Tuproqqal'a saroyida olib borilgan qazilma ishlari chog'ida topilgan, milodning III asriga mansub teri, yog'och, suyakka bitilgan, hujjatlari nihoyatda qiziqarlidir. Markaziy Osiyoda yozuvlar bo'yicha kuchli mutaxassis hisoblangan V.A. Livshis tomonidan o'qilgan mazkur hujjatlar, fanda "Uylar ro'yxati" deb nom olgan. Unda shu uylarda yashaydigan oila a'zolarining ijtimoiy maqomi va tarkibiy soni, ismlari to'laligicha keltirilgan. So'g'd yozuvlari ham qiziqarli va turli-tumandir. Ular orasida eng erta davrga mansublari - miloddan avvalgi II-III asrlarga taalluqli bo'lgan, tangalardagi afsonalardir.

Ammo ehg ahamiyatli yodgorlik, Samarqanddan 120 chaqirim uzoqlikda joylashgan, Mug' tog'idagi (Tojikiston) qal'adan topilgan so'g'diylar arxivining ochilishi bo'ldi. Ko'pincha uchrab turadigandek, So'g'd matnlarini ham birinchi bo'lib, 1932 yili cho'ponlar topishgan. Keyingi yili esa, A.A. Freyman rahbarligi ostidagi ekspeditsiya, bu yerlarda qazilma ishlarini olib borgan. Hammasi bo'lib bu yerdan 74 ta so'g'd hujjatlari topilgan: 1 ta arabcha, 1 ta qadim turk - runiy, shuningdek bir qancha xitoycha. Ushbu topilmaning bahosi beqiyosdir, bu O'rta Osiyodan topilgan qadimgi mahalliy yozuvlar kashf qilinishining birinchi hodisasi edi. Mug' tog'idan topilgan hujjatlar milodning VII asr oxirlari va VIII asr boshlariga mansub. Ular So'g'dning madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixi bo'yicha ehg nodir ma'lumotlarni o'z ichiga olgan¹.

So'g'd yozuvining yodgorliklari - Buxorodan boshlab to Eski Marvgacha va Mo'ng'ulistondan to Pokistongacha bo'lgan ulkan hududda topilgan; O'rta Osiyoda ular shuningdek Farg'ona vodiysi, Yettisuvda, Chochda topilgan. So'g'd yozuvining

¹ Фрейман А.А. Описание публикации и исследование документов с горы Муг. – М., 1962.

bunchalar keng rivojlangani, So'g'd savdogarlarining Buyuk ipak yo'li trassalarida faol savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanishlari, shu bilan birga so'g'd qo'rg'onlari milodning birinchi yuz yilliklaridayoq mamlakat tashqarisida paydo bo'la boshlagani bilan bevosita bog'langan. So'g'diylarning ayniqsa, turklar bilan aloqalari mustahkam bo'lgan, uning natijalaridan biri esa, Markaziy Osiyo yozuvi buyuk zanjirining rivojlanishi bo'lib qoldi: so'g'diylardan - uyg'urlarga, ulardan - mo'ng'ullarga, u yog'iga esa - manchjurlarga.

VII asr, ehtimol, VI asrlarda So'g'd yozuvi asosida yaratilgan, turkiy-runik yozuv tarqala boshlaydi. Ushbu yozuvning namunalari Yettisuv, So'g'd, Farg'onadan topilgan bo'lib, yog'och tayoqchalarga, sopolga, toshga bitilgan.

O'zbekistonning qadimiy, arablargacha bo'lgan yozuvlari haqidagi qisqacha ma'lumotlar ana shulardan iborat. Ular uzoq o'tmishdagi ajdodlarimizning yuqori darajadagi ma'naviy madaniyatidan, ularning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan munosib hissasidan dalolat beradi.

Ilk o'rta asrlarda O'zbekiston hududida turli dinlar keng tarqalgan: zardushtiy, budda, sabeizm, majusiylik, nasroniylik (xristianlik) va boshqalar bor. Milodning III-IV asrlarida bu yerga monaviylik va nasroniylik kirib keladi. Milodning VII asr o'rtalarida bu yerda islomning keng tarqalish jarayoni boshlangan va VIII-IX asr boshlariga kelib, O'rta Osiyo xalqlarining hokim diniga aylangan va hozirda ham u shunday hisoblanadi. Mazkur bo'limda, qadimda va ilk o'rta asrlarda Baqtriya, So'g'd, Parfiya va Xorazmda asosiy din bo'lib kelgan, faqat zardushtiylikni tavsiflab o'tamiz.

Zardushtiylik - qadimgi din. Zardushtiylik dininig nomi ushbu din asoschisi Zardusht (turli tillarda Zaratushtra, Zoroastr) ismidan olingan, eski Eron tilidan "oltin (yoki eski) tuya sohibi" deya tarjima qilinadi. Ko'plab olimlar, Zardushtni - afsonaviy emas, balki real shaxs deb hisoblashadi¹.

¹ Rtveladze E.V. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi... B. 133-134.

Zardusht o'z ta'limotini targ'ib qilishni boshlagan kezlar, O'rta Osiyo va Eron tarixi uchun nihoyatda muhim bo'lgan. O'sha kezlarda eski ibtidoiy jamiyatga dohil munosabatlar tanazzulga uchrayotgan, yangi, sinfiylari oyoqqa tura boshlagan edi.

Yangi din bu o'zgarishlarni o'zida aks ettirayotgan va kurtak otib kelayotgan yangi sinfiy jamiyatga xizmat qilayotgan edi. U siyosiy birlashuvga chorlab, kuchli markazlashgan hokimiyatni tuzishga va bu davrga kelib dehqonchilik vohalaridagi aholi uchun chinakam “boshga bitgan balo” ga aylangan ko'chmanchi xalqlarga qarshi keskin kurash olib borishga chaqirayotgandi.

Diniy nuqtai nazardan Zardushtning islohoti yagona xudo Axuramazdaga (aniq ma'noda – “donishmand” janob) sig'inishni targ'ib qilish, bundan avvalgi qabilalarnig ilohalari - asurami va dayvamilarga qarshi kurashishga chorlashdan iborat bo'lgan, endilikda ular Axuramazdaning dushmanlari deb e'lon qilingandi.

Bundan buyon doimiy ravishda va uzluksiz ezgulik va yovuzlik, haqiqat va yolg'on, yorug'lik va zulmat o'rtasida kurash borishi e'lon qilingan. Bu kurash fazoviy miqyoslar kasb etib zardushtiylikning ruh va modda borligining (dualizim) asosi bo'lib qoladi, bunda yorug'lik kuchlarini Axuramazda boshqaradi, yovuz kuchlar boshida esa Axriman turadi.

Majusiylar ma'badning barcha ko'p qiyofali vazufalari bundan buyon Amesh Spenta deb atalmish o'ziga xos hay'atga o'tkaziladi. Ular oltita va endilikda ular majusiylar tushunchasicha, jism va qondan yaralgan ilohalar emas, balki ular shartli ravishda jumga bo'ysingan mavhum mohiyatdan iboratdir, mohiyatan faqatgina yagona ilohalik vazifasini bajaruvchilardir. Qadimiy majusiylar urf-odatlarini, jumladan, marosimiy giyohvand hisoblangan - xaomi iste'mol qilish qat'iy rad etilgan.

To'g'ri, vaqt o'tishi bilan Zardusht dini asta-sekin eroniy tillarga mansub xalqlar ichida tarqalar ekan va o'z asosini saqlab qolgancha, bir qator o'zgarishlarga duch kelgan. Zardushtiylik asta-sekin izga tusha boshladi - qadim vaqtlardagi eng muhim dinlardan biri bo'lgan zardushtiylik Zardushtning diniy falsafiy ruh va

modda mavjudligini (dualizmini) o'ziga singdirib, eski Eronning diniy va tarixiy rivoyatlarini saqlab qolgan¹.

Zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto” (“qat’iy qonunlar”) yaratildi. “Avesto” ning birinchi kodifikatsiyasi, aftidan miloddan avvalgi birinchi asrlarga to'g'ri keladi deb hisoblashadi, ammo ayrim olimlar zardushtiylik an'analariga tayangan holda, bu voqealarni Sosoniylarning (milodning III-IV asrlari) dastlabki paytiga nisbat berishadi. Ana o'sha kezlardayoq “Avesto” atamasi paydo bo'lgan-o'rta forschasiga bu “Apastak”, ya'ni “asos”, “asosiy matn” degan ma'nolarni anglatadi.

“Avesto” - zardushtiylik dinining, musulmonlarning Qur'oni Karimi yoki nasroniylarning Injilidek - muqaddas bitiklari kabi, turli vaqtlar va turli hududlarda tuzilgan diniy matnlar to'plamidir. “Avesto” ning kattagina qismi islom qabul qilingach, yo'q qilingan, bizgacha uning, kundalik diniy amaliyotda zarur bo'lib turadigan, ayrim matnlarigina yetib kelgan.

Xayrli ish, shirin so'z, olijanob o'y-fikrlar zardushtiylar kundalik hayotining mazmunini tashkil qilgan. Odamning asosiy burchi adolatli turmush tarzidan iborat bo'lmog'i, yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilishini ko'zlab yashash, yolg'on gapirmaslik, so'zning ustidan chiqmoq, faqat yaxshi, ezgu amallarni bajarmoqdir.

Zardushtiylik dafn marosimini o'tkazishga doir ancha murakkab va o'ziga xos usullarni ishlab chiqqan. Uning asosida - “Avesto” ning qat'iy qonunlaridan biri - marhumlarni dafn qilishda, uning jasadini - yer, olov, suvga teginishdek katta gunoh ishga qo'l urishdan qaytariladi. Kimki inson jasadi yoki o'lgan itni yerga ko'mar ekan, u og'ir gunohga qo'l urgan bo'ladi, buning uchun esa gunohkorga 500 qamchi urishdek jazo belgilangan. Odam jasadi yoki it ko'milgan joylar bir yil ichida sug'orilmasligi va u yerda ekin ekilmasligi lozim bo'lgan.

Arablarning yurishlari bilan bir vaqtda aholini islomalshtirish ham avj olgan, aftidan bu VII asr boshlariga to'g'ri keladi. Tadqiqotchilarning fikricha, arablarning ilk yurishlari davri, 644 yildan 704 yilgacha davom etgan, arablar mahalliy aholini

¹ www.krugosvet.ru

to'la islomlashtirish rejasini hali ko'zlashmagan va O'rta Osiyo viloyatlarini xalifalikka bo'ysundirishga urinishmagan. Bu vazifa O'rta Osiyoni bosib olishning ikkinchi bosqichida, 704 yildan so'ng, Movarounnahr xalqlariga qarshi harbiy yurishlarga boshchilik qilish Qutayba ibn Muslim qo'liga o'tganidan so'ng, amalga oshirila boshladi. Iste'dodli va shafqatsiz lashkarboshi sifatida u sakkiz yil davomida Xorazmdan to Chag'oniyongacha bo'lgan Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlariga yurish qiladi va ko'plab shahar va qishloqlarni yakson qilib, minglab odamlarning yostig'ini quritadi, butun boshli qadimiy qo'lyozmalar jamlangan kutubxonalarni, Xorazmda bo'lgani kabi yoqtirib yuboradi.

Qutaybaning harbiy muvaffaqiyatga erishuvida, ko'pgina mahalliy feodal hukmdorlarning arablar bilan ittifoqligi, qo'shni viloyatlarga qarshi bosqinchilik yurishlarida qo'l kelgan.

IX-XIII asrlarda arablarning bosqini natijasida O'rta Osiyo, jumladan Qashqadaryo vohasi ma'naviy madaniyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mavjud yozuvlar arab imlosiga, diniy e'tiqod islom diniga aylantirildi.

Qashqadaryo vohasida mashhur allomalar, shoir va faylasuflar, yozuvchi va muhaddislar, mohir xattot va tarjimonlar yashab o'tgan. IX asr Nasafda hadisshunoslik va fiqhshunoslik maktablari vujudga kelgan. X asrda Ahmad ibn Muhammad at-Tadyoniy, Hammad ibn Shokir an-Nasafiy, Abdulmu'min ibn Xalaf an-Nasafiy, al-Lays ibn Nasr al-Kojariy, XI asrda Abdulaziz ibn Muhammad an-Naxshabiy, Muhammad ibn Ahmad al-Baladiy, al-Hasan ibn Ali al-Hammodiy an-Naxshabiy kabi olimlar islom olamida shuhrat topganlar.

«Nasafiy» taxallusli bir necha o'nlab ijodkorlarning nomlari ma'lum. Moturidiya kalom maktabining atoqli namoyandalaridan biri Abul Mu'in an-Nasafiy, hadisshunos va hanafiya mazhabining taniqdi fiqhshunosi Abul Hasan al-Bazdaviy an-Nasafiy («Faqihu Movarounnahr» va «Ustoz al-aimma» - «Imomlarning ustozlari» unvonlariga sazovor bo'lgan), fiqhshunos Abu Hafs Najmiddin Umar Nasafiy, Abul Barakot an-Nasafiy, Abu al-Muti' Nasafiy, Hakim So'zaniy, Abu Turob Naxshabiy, Saido Nasafiy, Nurmuhammad Nasafiy, Shamsiddin So'zaniy, Muayiddin Nasafiy, Shahobiddin Ahmad Nasafiy,

Sharafiddin Xusom, Abul Barakot an-Nasafiy, Hofiziddin Nasafiy, Xoja Abulbaraka (Firoqiy), Ayub Shahrisabziy, Mavlono Soyiliy, Mavlono Mir Qarshiy va boshqa bir qancha nasafiylar yashab, ijod etganlar.

Abu Sa'd Abdulkarim as-Sam'oniyning (1113-67) “Kitob al-Ansob” (“Nisbalar kitobi”) asarida VIII – XII asrlarda yashab o'tgan 180 ga yaqin nasaflik olim va shoirlarning nomlari qayd etilgan.

Qarshi va Kesh shaharlari O'rta Osiyoning eng ko'hna shaharlari - Samarqand, Buxoro, Xiva singari boqiydir. IX-XII asrlarda Nasaf musulmon olamidagi eng yirik shaharlardan biri hisoblanib, Sharq sivilizatsiyasida salohiyatli o'ringa ega bo'lgan. Bu davrda madina, ya'ni yirik muazzam shahar maqomini olgan 8 ta shahar mavjud edi: Madinai munavvara, Bag'dod, Isfahon, Nishopur, Marv, Buxoro, Samarqand va Nasaf.

Nasaf o'z davrida Samarqand, Buxoro va Marv singari to'rtta hadisshunoslik maktabidan biri ham sanalgan. X asrda bu shaharda xalqaro ilmiy kongress - “Majlisi tadrīs” o'tkazilgan. Hadis ilmi sultoni Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) Nasaf shahrining Boyon mahallasida ma'lum muddat yashab, ilm-fan bilan mashg'ul bo'lgan, hadislar uchun ma'lumotlar to'plagan va shogirdlariga saboq bergan. Bu muazzam shahardan 400 nafardan ziyod o'z fanining zukko bilimdon allomalari yetishib chiqqan.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida Qashqadaryo vohasi Yurtboshimiz Islom Karimov rahnamoligida rivojlanishning yangi-yangi pog'onalariga, ilgari mutlaqo tasavvur etib bo'lmaydigan darajalarga ko'tarildi. Ayniqsa, Shahrisabz va Qarshi shaharlarining 2700 yillik qutlug' to'yiga tayyorgarlik ko'rish doirasida viloyatimiz markazida juda keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, ularning miqyosi nafaqat yurtdoshlarimiz, balki yubiley o'tkazish tashabbusini qo'llab-quvvatlagan nufuzli YUNESKO tashkiloti rahbariyatini ham qoyil qoldirdi.

XULOSA

Betakror sivilizatsiya va madaniyat beshigi sanalgan ko'hna Qashqadaryo vohasi ayni paytda istiqbolning beqiyos qudrati, xalqimiz bunyodkorlik salohiyatidan dalolat beruvchi zamonaviy navqiron shahardir. Prezidentimiz Islom Karimov: "...kimki bizning kuch-qudratimizni, xalqimizning azmu shijoatini, qanday buyuk ishlarga qodir ekanini ko'rmoqchi bo'lsa, mana shu Qarshi shahrida, butun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarimizni kelib ko'rsin", deya ta'kidlaganidek, vohada ma'lum davrlarda yaratilgan moddiy madaniyat alohida tahsinga loyiq.

Qashqadaryo vohasining V-XIII asrlar davridagi moddiy madaniyati tahlil etilib quyidagicha xulosaga kelindi:

Birinchidan, ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyodagi tarixiy vaziyat nihoyatda murakkab bo'lgan. Bunda turli ko'chmanchi qabilalarining hujumlari, ma'lum bir muddat O'rta Osiyoda o'z hukmronliklarini o'rnatilganligini ko'rish mumkin (xioniylar, kidariylar, eftalitlar, Turk xoqonligi).

Ikkinchidan, Qadimgi davrdan o'rta asrlar bosqichiga o'tishdagi jarayonda Buyuk ipak yo'lining ahamiyati qanchalik katta bo'lganligini mazkur davrda yaratilgan moddiy madaniyat namunalari tasdiqlaydi.

Uchinchidan, antik davr san'ati asrlar mobaynida insoniyatni maftun etib, uni o'ziga jalb etib kelgan bo'lsa, ilk o'rta asrlarga kelib mahalliy elatlar va xalqlar madaniyatiga ko'chmanchilarga xos xususiyatlar ko'proq o'z ta'sirini ko'rsatgan.

To'rtinchidan, V-XIII asrlarda Qashqadaryo vohasida shahar hunarmandchiligi keng tarmoq otib rivojlanishda davom etdi, yirik savdo-sotiq markazi sifatidagi o'rnini saqlab qoldi.

Beshinchidan, XX asrning 40-80-yillari davomida arxeologlar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida V-XIII asrlarga oid manzilgohlardan topilgan turli moddiy ashyolar asosida Qashqadaryo vohasining V-XIII asrlar moddiy madaniyatini tiklash imkonini berdi.

Oltinchidan, arablar bosqini va islom dini kirib kelguniga qadar O'rta Osiyo xalqlari, jumladan Qashqadaryo vohasi aholisi ham turli dinlarga e'tiqod qilganliklari, ularning turmush tarzida yozuvning ahamiyati qay darajada o'rin egallaganligi mazkur hududdan topilgan moddiy ashyolar tasdiqlaydi.

Yettinchidan, IX-XII asrlarda Nasaf va Kesh shaharlari musulmon olamidagi eng yirik shaharlardan biri hisoblanib, Sharq sivilizatsiyasida salohiyatli o'ringa ega bo'lgan. Bu davrda madina, ya'ni yirik muazzam shahar maqomini olgan 8 ta shahar (Madinai munavvara, Bag'dod, Isfahon, Nishopur, Marv, Buxoro, Samarqand va Nasaf) dan biri vohadagi Nasaf-Qarshi bo'lgan. Shuningdek, Nasaf o'z davrida Samarqand, Buxoro va Marv singari to'rtta hadisshunoslik maktabidan biri ham sanalgan. X asrda bu shaharda xalqaro ilmiy kongress - "Majlisi tadrīs" o'tkazilganligi yozma manbalar asosida aniqlandi.

Shunday qilib, Qashqadaryo vohasi aholisining V-XIII asrlarda yaratgan moddiy madaniyat asrlar osha bizgacha yetib kelgan san'at namunalari uning kamolotidan va boqiyligidan guvohlik berib turadi.

Tavsiyalar

1. Qashqadaryo vohasining moddiy madaniyatiga xos bo'lgan moddiy ashyolarni o'zida jam qilgan yodgorliklarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.
2. Qashqadaryo vohasi hududidagi yodgorliklarda xalqaro arxeologik izlanishlarni olib borish.
3. Qashqadaryo vohasida moddiy madaniyatni yaratgan qadimiy so'g'diylar haqida yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni yoshlar orasida targ'ib qilish.
4. Qadimgi Qashqadaryo vohasi tarixiga oid yozma manbalarni yanada chuqurroq o'rganish va tahlil qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2012.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari,

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

1. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т., “Ўзбекистон”, 2011. – 440 б.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. –Т., Ўзбекистон, 1999. 7 ж. – В. 128-132.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., “Маънавият”, 2008.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори “Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” // Г. Халқ сўзи. 27 июн 1998 йил.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Шаҳрисабз шаҳрининг 2700 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш тўғрисида” ги Қарори // Г. Халқ сўзи. 2002 йил, 30 март.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Қарши шаҳрининг 2700 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш тўғрисида” ги Қарори // Г. Халқ сўзи. 2004 йил, 29 сентябрь.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қарши шаҳрининг 2700 йиллигини нишонлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги Қарори // Г. Халқ сўзи. 2005 йил, 26 июль
8. Ўзбекистон Республикасининг қонуни “Археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида” // Г. Халқ сўзи. 2009 йил, 30 август.
9. Ўзбекистон Республикасининг қонуни “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида” // Г. Халқ сўзи. 2009 йил, 12 октябрь.

Monografiya va risolalar

1. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., “Шарқ”, 2001. – 368 б.


2. Алимова Д.А., Филанович М.И. Тошкент тарихи (қадимги даврлардан бугунгача) – История Ташкента (с древнейших времен до нашей дней). Қайта ишланган ва тўлдирилган иккинчи нашри. - Тошкент, “ART FLEX”, 2009. – 168 б.
3. Гумилёв Л.Н. Қадимги турклар. – Т., “Фан”, 2002. – 468 б.
4. Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. – Т., “Фан”, 1960.
7. Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. – Т., “Фан”, 2002. – 68 б.
8. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. 1 j. – Т., “Sharq”, 2010. – 410 b.
9. Rtveladze E.V. O`zbekistonning tarixiy o`tmishi. – Т., “San'at Jurnali”, 2009. – 240 b.
10. Равшанов П. Қарши тарихи. – Т., “Янги аср авлоди”, 2006. – 647 б.
11. Сулаймонов Р. Нахшаб – унутилган тамаддун сирлари. – Т., “Маънавият”, 2004. – 48 б.
12. Туркшунослик тадқиқотлари. – Т., 2009. – 105 б.
13. Шахрисабз. Минг йиллар мероси. – Т., “Шарқ”, 2002. – 226 б.
14. Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар. – Т., “Шарқ”, 1998. – 208 б.
15. Қарши 2700 // Китоб-альбом. - Т., “Маънавият”, 2006. – 368 б.
16. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Т., “Фан”, 1982. – 211 с.
17. Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса. – Т., “Фан”, 1975. – 194 с.
18. Буряков Ю.Ф. К истории раннесредневекового Чача // O`zbekiston tarixi. № 3, 2002.
19. Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). – Т., “Фан”, 1982. – 158 с.
20. Кабанов С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековья. – Т., “Фан”, 1977. – 136 с.
21. Кабанов С.К. Культура сельских поселений Южного Согда III-VI вв. – Т., “Фан”, 1981. – 124 с.

22. Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII–XII вв. – Т., “Фан”, 1984. – 127 с.
23. Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. – Т., “Фан”, 1973. – 100 с.
24. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент-Самарканд, “Фан”, 2000. – 344 с.
25. Фрейман А.А. Описание публикации и исследование документов с горы Муг. – М., “Наука”, 1962. – 184 с.

Internet saytlari

1. www.kultura.uz
2. www.arxeologiya.uz
3. www.wikipedia.org
4. www.history.ru
5. www.krugosvet.ru

ILOVALAR





Eftalitlar podshosi Laxanning tangasi



Eftalitlar madaniyatiga oid kumushdan ishlangan buyum



Eftalitlar draxmasi






Ilk o'rta asrlarga oid terrakotalar





Turk xoqonligi bayrog'i



Turk xoqonligi davriga oid topilmalar

ОРХОНСКИЕ ПИСЬМЕНА

ОРИГИНАЛЬНЫЕ ПИСЬМЕНА	ЛИТЕРАТУРНЫЕ ПИСЬМЕНА	СОВРЕМЕННЫЕ ПИСЬМЕНА	ОРИГИНАЛЬНЫЕ ПИСЬМЕНА	ЛИТЕРАТУРНЫЕ ПИСЬМЕНА	СОВРЕМЕННЫЕ ПИСЬМЕНА	ОРИГИНАЛЬНЫЕ ПИСЬМЕНА	ЛИТЕРАТУРНЫЕ ПИСЬМЕНА	СОВРЕМЕННЫЕ ПИСЬМЕНА
ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	a, a	ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	d (перед a, o, u, y)	ᠲ	ᠲ	t (перед a, o, u, y)
ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	y, i	ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	d (перед a, o, u, y)	ᠲ	ᠲ ᠲ	t (перед a, o, u, y)
>	>	o, u	ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	p	ᠲ	ᠲ	t (перед a, o, u, y)
ᠰ ᠲ ᠬ	ᠰ ᠲ ᠬ	o, u	ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	b (перед a, o, u, y)	ᠲ	ᠲ ᠲ	t (перед a, o, u, y)
ᠰ ᠲ ᠬ	ᠰ ᠲ ᠬ	k (перед a, o, u, y)	ᠰ ᠲ ᠬ	ᠰ ᠲ ᠬ	b (перед a, o, u, y)	ᠲ	ᠲ	t (перед a, o, u, y)
ᠰ	ᠰ	k (перед a, o, u, y)	ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	j (перед a, o, u, y)	ᠲ	ᠲ	t (перед a, o, u, y)
ᠰ	ᠰ	k (перед a, o, u, y)	ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	j (перед a, o, u, y)	ᠲ	ᠲ	t (перед a, o, u, y)
ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	q (перед a, o, u, y)	ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	l	ᠲ	ᠲ ᠲ ᠬ	s
ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	k (перед a, o, u, y)	ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	z	ᠲ ᠲ ᠬ	ᠲ ᠲ ᠬ	z
ᠰ	ᠰ	k (перед a, o, u, y)	ᠰ	ᠰ	z	ᠲ ᠲ ᠬ	ᠲ ᠲ ᠬ	z
ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	q (перед a, o, u, y)	ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	z	ᠲ ᠲ ᠬ	ᠲ ᠲ ᠬ	z
ᠰ ᠲ ᠬ	ᠰ ᠲ ᠬ	l (перед a, o, u, y)	ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	m	ᠲ	ᠲ	t (перед a, o, u, y)
ᠰ ᠲ ᠬ	ᠰ ᠲ ᠬ	l (перед a, o, u, y)	ᠰ	ᠰ ᠲ ᠬ	m	ᠲ	ᠲ	t (перед a, o, u, y)

O'rxun yozuvi



Памятник в честь Кюльтегина - принца, полководца. VIII в., бассейн реки Орхон. Из Большой надписи памятника о великих предках тюркского народа: «Имевших головы они заставили склонить [головы], имевших колени они заставили преклонить [колени]»



Памятник в честь Тоньюкука - советника и военачальника тюркских каганов, VIII в. Из надписи памятника (Тоньюкук о себе): «...и государство стало государством, и народ стал народом... Я приказал написать [это] для народа тюркского Бильге-кагана»



«Великий» тюрк гюк («голубой тюрк») - тяжелооруженный всадник

Turk xoqonligi hukmdorlariga atab qo'yilgan yodgorliklar



Turk xoqonligi tangasi



Сергей Кузьмич КАБАНОВ



S.K. Kabanov tuzgan Qarshi vohasidagi yodgorliklar xaritasi



Shulluktepa yodgorligi

